

1
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM

VAZIRLIGI

NAMANAGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

Rahimbediyev Sardorbek

DEHLI SULTONLIGI

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:

Z.Madrahimov

NAMANGAN - 2019

MUNDARIJA:

KIRISH.....3

I BOB. DEHLI SULTONLIGINING SIYOSIY HAYOTI.....9

- 1.1. Dehli sultonligining tashkil topishi va unda hukmronlik qilgan sulolalar.....9
- 1.2. Roziya sultonbegim – Dehli sultonligining ayol hukmdori.....26

II BOB. DEHLI SULTONLIGINING BOSHQARUV TIZIMI VA MADANIY HAYOT.....41

- 2.1. Dehli sultonligida davlat boshqaruvi. Unvon va mansablar.....41
- 2.2. Dehli sultonligi davrida madaniy hayot.....49

XULOSA.....65

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....70

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarblii. Mustaqillik xalqimizga o’zligini qaytarib berdi. Buning natijasi o’laroq, hukumatimiz tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, xususan, ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e`tibor berildi. Jumladan, 2017-yilning boshida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “2017 – 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi”¹ning to’rtinchi yo’nalishida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi fikrimizning yaqqol misolidir.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qaroridan ko`zlangan maqsad ham yutimizda oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, raqobatbardosh, aqlan, ma`nan va jismonan yetuk shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan².

O’zbekiston mustaqillikka erishgach, o’zbek xalqi o’zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo’ldi. “O’zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og’ir sinovlar bo’lganini barchamiz yaxshi bilamiz”³. Mana shu sinovlarga boy o’tmish, mana shu so’nmas madaniyat o’zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari odim qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o’tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo’lida birlashtiradi. Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek: “O’zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatlri xalqimiz har qanday qiyinchilik, to’siq va sinovlarni o’z kuchi va irodasi bilan yengib o’tishga qodir, deb baralla aytishga to’la asos beradi”⁴.

Mustaqillik tufayli o’zbek xalqining ko’p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o’rganish, undan xalqning umumiyligi va bebahoh mulki sifatida

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апреидаги ПҚ-2909-сонли Қарори // Акс Садо. 2017 йил 6 апрель – 22 апрель. –№6 (73).

³ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.

⁴ Мирзиёев Ш. М. Ko’rsatilgan asar. – Б. 7.

foydalananishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu ma'naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlashda va rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida nafaqat yurtimiz tarixi balki jahon mamlakatlarining tarixi va madaniyatini o'rghanishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Yurtimizda ana shunday katta qiziqish bilan tarixi va madaniyati o'rganilayotgan davlatlardan biri Hindiston hisoblanadi.

Hindiston boy tarix va madaniyatga ega afsonaviy mamlakat hisoblanadi. Hindiston o'zining boy tarixi bilan Misr, Ikkidaryooralig'i, Xitoy, Eron, O'rta Osiyo, Yunoniston va Rim kabi davlatlar bilan bemalaol baxslasha oladi. Hindiston hududida ilk davlatlar miloddan avvligi III – II ming yilliklardoq shakllana boshlagan. Bu qadimiy o'lka hududida 4 ming yildan buyon ko'plab qudratli davlatlar va sulolalar mavjud bo'lган. Shuningdek, Hindistonda hukmronlik qilish uchun jahonning ko'plab qudratli davlatlari va hukmdorlari kurash olib borganlar. O'z davrida Hindistonda Mauriya, Gupta, Dehli sultonligi, Boburiylar sultanati kabi qudratli davlatlar mavjud bo'lган va Hindistoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shunday Hindiston tarixida muhim ahamiyat kasb etgan davlatlardan biri Dehli sultonligi hisoblanadi. Ma'lumki, VIII asr o'rtalaridan boshlab Hindiston hududiga musulmonlarning bostirib kelish jarayoni kuchaydi va uzoq davom etdi. Dastlab, Arab xalifaligi, keinchalik XI asr boshlarida Mahmud G'aznaviy boshchiligidagi G'aznaviyalar davlati shimoliy Hindistonning bir qismini egalladi. Biroq Hindistonda markazlashgan dastlabki muslmon davlatiga 1206-yilda asos solindi va bu davlat Dehli sultonligi edi. Dehli sultonligi 1206-yildan Boburiylar davlati tashkil topginuga qadar ya'ni 1526-yilgacha yashadi va Hindiston tarixida muhim ahmiyat kasb etdi. Dehli sultonligining tashkil topishi, boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosati, Hindiston tarixida tutgan o'rini o'rghanish va yoritib berish mavzuning doslzarbligini oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rGANILISHI darjası. Bugungi kunga qadar – Hindiston tarixining turli davlari jahonning ko'plab olimlari tomonidan

o'rganilgan va o'rganilmoqda. Xususan, tadqiqot mavzusiga oid bir qator tadqiqotlar, adabiyotlar, risolalar, maqola va qo'llanmalar yaratilgan va tadqoqotlar davom etmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan I.H.Qureshi, N.K.Sinxa, A.Ch.Banerdji, Mohd Habib, K.A.Bongard, G.G.Levin, Kumar Brothers, Agha Mahdi Husain, Muhammad Qamaruddin, L.S.Chandel, K.Ye.Bosvort, Sh.Vohidov, A.Qodirov, I.V.Frolova, Anup Singh va boshqa xorijlik va bir qator yurtimiz olimlarinng asarlari, ilmiy tadqiqotlarini alohida ko`rsatish mumkin⁵. Bu asar, maqola va tadqiqotlarda Hindiston tarixida muhim o'rinn tutgan Dehli sultonligi tarixining turli davlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – XIII asr boshlaridan – XVI asr birinchi choragiga qadar Hindiston hududida mavjud bo'lgan Dehli sultonligi tarixini ilmiy jihatdan o'rganish va tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

Ko'zlangan ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi:

- O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va uning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib berish;
- XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Hundistonning siyosiy ahvolini ko'rsatib berish;
- Dehli sultonligining tashkil topish jarayonini ilmiy adabiyotlar orqali yoritish;
- Dehli sultonligida humkronlik qilgan sulolalar tarixi o'rganish va qiyosiy taxlil qilish;

⁵Qureshi I. H. Administration of the Sultanate. – Lahore: Kashmiri Bazaar, 1944; Синха Н. К., Банерджи А. Ч. История Индии. – М.: “Иностранный литературы”, 1954; Mohd Habib. Introduction to the Fatwa-i-Jahandari. – Aligarh, 1958; Бонгард К. А., Левин Г. Г. История Индии. – М., 1969; Kumar Brothers .The Government of the Sultanate. – New Delhi, 1972; Agha Mahdi Husain. Futuh-us-Salatin. – New Delhi: Asia Publishing House, 1976; Семенов В. Ф. Ўрга асрлар тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1978; Muhammad Qamaruddin. Society and Culture in early medieval India. Adam Publishers & Distributors. – New Delhi, 1985; Chadel L. S. Early Medieval State. Commonwealth Publishers. – New Delhi, 1989; Босворт К. Е. Мусулмон суполалари. – Т.: Фан, 2007; Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур суполалари. – Т.: Академнашр, 2013; Фролова И. В. Статус женщины-мусульманки в поликонфессиональном обществе: история и современность. – Уфа: Мир печати, 2016; Anup Singh. Origin and ruling period of Delhi sultanate // International Journal of Academic Research and Development. Volume 3. Impact Factor: RJIF 5.22. – New Delhi, 2018. – P. 83-86.

- Dehli sultonligining qudratli hukmdorlari, ular olib borgan ichki va tashqi siyosatni o'rganish;
- sultonlikdagi yagona hukmdor ayol – Roziya sultonbegim faoliyatini ilmiy adabiyotlar orqali yoritish;
- Dehli sultonligining hududi va undagi o'zgarishlarni qiyosiy jixatdan o'rganish;
- Dehli sultonligining davlat boshqaruv tizimini o'rganish va o'ziga xosligini ko'rsatib berish;
- sultonlikdagi unvon va mansablar, ularning vazifalarini Hindiston va musulmon davlatlari bilan solishtirgan xolda o'rganish;
- Dehli sultonligi madaniyatini o'rganish va qiyosiy taxlil qilish;
- mavzu yuzasidan umumiy xulosa qilish.

Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asoslari. Nodira nomidagi Namangan shahar Axborot resurs markazi va Namangan Davlat universiteti Axborot resurs markazida saqlanayotgan Hindiston tarixiga bag'ishlangan asarlar, gazeta, jurnal va, turli hajmdagi ilmiy to`plamlarda chop etilgan maqolalardan bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda foydalanildi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda internet ma'lumotlaridan ham keng foydalanildi⁶.

Bitiruv malakaviy ishining ob`yekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob`yekti – Hindiston tarixidagi qudratli davlatlardan biri Dehli sultonligi tarixi hisoblanadi. Sultonlikning ichki va tashqi siyosati, boshqaruv tizimi va madaniyati ishning predmetini tashkil etadi.

⁶<http://www.leadthecompetition.in/GK/history/delhi-sultanate.html>; <https://www.britannica.com/place/Delhi-sultanate>; <https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/administration-in-delhi-sultanate-1441275639-1>; <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/delhi-sultanate/administration-of-india-under-the-delhi-sultanate-history/6585>; <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>; <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>; <https://erenow.net/exams/indian-history/17.php>; <http://haryanatourism.gov.in/Destination/tomb-of-razia-sultan>; <https://brainly.in/question/334069>; <https://www.thebetterindia.com/116257/razia-sultan-first-female-ruler-delhi/>; <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/delhi-sultanate/administration-of-india-under-the-delhi-sultanate-history/6585>; https://www.brainkart.com/article/Delhi-sultanate----Art--Architecture--Literature-and-Music_1279/; <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/sufi-and-bhakti-movement-in-india/3052>.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi sifatida Dehli sultonligi yashagan – 1206 – 1526-yillar olindi. Hindistondagi siyosiy tarqoqlikdan foydalangan G’azna sultoni Muhammad Guriy XII asr oxirlarida shimoliy Hindistonning katta qismini egalladi va uning lashkarboshisi Qutbiddin Oyboq 1206-yilda Dehli sultonligiga asos soldi. 1526-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga bostirib kirdi va Dehli sultonligiga chek qo’ydi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

- Dehli sultonligining tashkil topish jarayoni ilmiy adabiyotlar orqali yoritildi;
- sultonlikda humkronlik qilgan sulolalar tarixi o’rganildi va ularning qudratli vakillari xaqida ma’lumot berildi;
- Dehli sultonligida hukmronlik qilgan yagona ayol – Roziya sultonbegim hukmronlik davri va olib borgan siyosati yoritildi;
- sultonlikning hududi va undagi o’zgarishlar ko’rsatib berildi va taxlil qilindi;
- Dehli sultonligining davlat boshqaruv tizimini o’rganildi, mamlakatdagi unvon va mansablar, ularning vazifalari aniqlandi;
- Dehli sultonligining madaniy xayoti o’rganildi, ilm-fan taraqqiyotiga xomiylilik qilgan hukmdorlar faoliyati, me’morchilik durdonlari xaqida ma’lumot berildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini o’rganish va tahlil qilishda dialektikaning umumfan – mantiqiy, tizimli yondashuv va analiz-sintez uslublari hamda maxsus tarixiy – tarixiy-genetik, xronologik va tarixiy qiyoslash uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, tarixiy bilmoqning xolislik, sababiylilik (determinizm), tarixiylik va tizimlilik (sistemali) tamoyillaridan ham foydalanildi. Turli manba va ma'lumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda voqealar tarixiylik, tadrijiylik, sivilizatsion yondashuv usullari asosida umumlashtirildi va tahlil etildi.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng, turli sohalar kabi ta’lim sohasiga, malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu esa hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar, qonunlar, dasturlar va amalga oshirilayotgan isloxtatlarda nomoyon bo’lmoqda. Xususan,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g'risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qaroridan ko`zlangan maqsad ham yutimizda oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish, raqobatbardosh, aqlan, ma`nan va jismonan yetuk shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan⁷.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy ko'rsatmalar, turli tadbir, marosim va tantanalarida so'zlagan nutqlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida belgilangan muhim vazifalar haqidagi ko'rsatmalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi ma`lumotlaridan umumiyo`rtta ta`lim maktablari, akademik litseylar, o`rta maxsus kasb-hunar kollejlarida tarix fani darslarida, oliygochlarning Tarix yo`nalishlari talabalari uchun “Jahon tarixi”, “Xalqaro munosabatlar tarixi”, “Jahon sivilizatsiyalari tarixi” kabi fanlardan ma`ruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining xajmi 74 betni tashkil etdi.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апреддаги ПҚ-2909-сонли Қарори // Акс Садо. 2017 йил 6 апрель – 22 апрель. - №6 (73).

I BOB. DEHLI SULTONLIGINING SIYOSIY HAYOTI

1.1. Dehli sultonligining tashkil topishi va unda hukmronlik qilgan sulolalar

X – XI asrlarda o‘zaro urushlardan kuchsizlanib borgan Hindistonni chet bosqinchilari ham talaganlar. Xususan, Arab xalifaligining parchalanishidan vujudga kalgan musulmon davlatlari hukmdorlari Hindistonga hujum boshlaydilar. G‘azna hukmdori Mahmud G‘aznaviyning qo‘sishlari 1000 – 1026-yillarda mamlakat shimoliga 17 marta bosqinchilik yurishlari uyushtirib Hindistonning Panjob va Sind viloyatlarini bosib oladi.

Shimoliy Hindiston G‘aznaviylar hujumiga ro’para kelganidagina musulmonlarning harbiy qudratining nima ekanligini anglab yetdilar. 1026-yilga kelib, G‘aznaviylar mahalliy sulolalarni tor-mor keltirdilar, xususan, Vayhind Hindushohlarini abgor qildilar. Rajputananing ko’pgina hukmdorlarini xiroj to’lashga majbur etdilar. Ularning qo‘sishlari Gujarat yarim orolida Sumnotgacha, Kalinjar va Banorasgacha borib yetdilar. Garchi Mahmud G‘aznaviy Hindiston butparastlarining dodini bergen hukmdor sifatida dong chiqargan bo’lsa-da, u ko’r-ko’rona taassubga berilgan emas; uning hindilarning hammasini yoppasiga islomga kiritish yoxud ularni qirib tashlash maqsadi bo’lmagan. Shimoliy Hindiston G‘aznaviylar uchun birinchi navbatda moliyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega edi, chunki bu mamlakat bitmas-tuganmas xazinalar mamlakati sifatida dong taratgan edi; bu yerning odamlaridan istagancha qul olish mumkin edi⁸. Shunga qaramay, G‘aznaviylar Panjobni egallab, uni o’zlarining Hindistondagi doimiy tayanch nuqtalariga aylantirdilar va uni to 1135-yilgacha idora qiladilar.

Shahobiddin Muhammad (1173 – 1206) G‘azna taxtini egalladi. Shahobiddin Muhammadni Muhammad Guriy deb ham atashgan. U o‘z davlatining sarhadlarini kengaytirishga harakat qilib Xorazmshohlar davlatiga qarshi bir necha bor harbiy yurushlarni amalga oshiradi. Ko’plab harbiy harakatlardan biror natijaga erisha olmagan Shahobiddin Muhammad bor e’tiborini janubga, Hindistonga qaratadi.

⁸ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 138.

Muhammad Go'rining Hindiston tomon ilk yurushlari 1175-yil boshlandi. Dastlabki harbiy harakatlar Mo'lton hamda Uchch shaharlarini egallanishi bilan yakuniga yetdi.

Muhammad Guriy harbiy urushlarni davom ettirib Gujarat (1178), Lahor (1186), Mo'ltan, Sind va Panjob (1190) shaharlarini egalladi. Lekin mana shu jangdan so'ng, 1191-yil Tarannada Prithivaraja Chauhan bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrab, o'limdan bazo'r qutulib qoldi. 1192-yil Tarannada Rajputlar bilan ikkinchi jang bo'lib o'tadi. Tarannadagi jang Hindiston tarixidagi burulish nuqta bo'ldi deyish mumkin. Muhammad Guriy bu jangga puxta tayyorgarlik olib bordi. Uning qo'shinlari hind qo'shinlariga nisbatan ikki baravar oz bo'lishiga qaramay, harbiy taktika va qurollar ustunligi bilan g'alabaga erishdi. Ganga vodiysiga bostirib kirgan musulmonlar qo'shinlari Taranna yonidagi g'alabadan so'ng, Muhammad Guriyning fikriga ko'ra, egallab olingan mamlakatni talon-taroj qilmasdan, uni Guriylar davlatining viloyatiga aylantirishlari lozim edi.

Yangi bosib olingan hududlarni boshqaruvini Muhammad Guriy kelib chiqishi g'ulomlardan bo'lgan tajribali sarkarda Qutbiddin Oyboqqa topshirdi. Mazkur holatda musulmon Sharqida keng tarqalgan g'ulomlarning alohida toifasi haqida so'z bormoqda: ota-onasidan tortib olingan yoki qul qilingan o'g'il bolalarni sulolaga va islomga sodiqlik ruhida tarbiyalashgan, harbiy ishga o'rgatishgan va saralangan qo'shinlarda foydalanishgan; ularning ko'plari mahorati kuchli bo'lganligi uchun, asosan, harbiy boshliqlar bo'lib yetishgan. Qutbiddin Oyboq harbiy noib bo'lgan. Uning vazifasi hind knyazliklarini bosib olishni yana davom ettirishdan iborat bo'lgan, biroq hind xalqining qarshilik ko'rsatishi muntazam kuchayib borgan va sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmagan. XIII asr boshlarida Muhammad Guriyning mulklari o'z tarkibiga Gang vodiysining g'arbiy qismi, asosan Doaba viloyati, Rojaston va Audning bir qismini olgan. Strategik jihatdan qulay joyda o'rnashgan Dehli shahri Qutbiddin Oyboqning qarorgohi bo'lgan⁹.

Musulmonlar qo'shini o'zining etnik jihat bo'yicha turlicha bo'lgan, biroq uning negizini turkiylar asosiga tashkil etilgan bo'lib, ular urug'-qabilaviy tartiblarini saqlab

⁹ <http://www.leadthecompetition.in/GK/history/delhi-sultanate.html>

qolishgan. Istilolar jarayonida yirik harbiy boshliqlarning boshqaruviga butun bir viloyatlar topshirilgan. Harbiy boshliqlar qo'shin yordamida dushmanlik kayfiyatdagi aholini itoatda tutib, soliq yig'ishgan va uni Dehlidagi noibga jo'natishgan, bir qismini esa qo'shinni ta'minoti uchun qoldirishgan.

Turkiylar hujumi davomida mahalliy feodallarning ko'pchiligi tomonidan qirib tashlandi, boshqalari yer-mulklarini tashlab qochishdi, ammo bir qismi o'z mulklarida qolishib, musulmon sultonining hokimiyatini tan olishdi va soliqlarning katta qismini sulton foydasiga topshirish majburiyatini qabul qilishdi. Oqibatda qolgan mahalliy vassallar – hindlardan bo'lgan yirik yer egalari harbiy hokimiyat bilan hind jamoalari o'rtasida tartibni saqlash va soliq yig'ishda vositachi bo'lib qolishdi. Dehli sultonligining tarixi, 1206-yilda sulton Muhammad Guriy harbiy yurishdan qaytayotganida Hind daryosi qirg'og'ida o'ldirilganidan keyin, boshlanadi. O'sha paytdayoq merosni bo'lib olish uchun kurash boshlandi: bunda g'ulomlardan bo'lgan harbiy boshliqlar ustun kelishdi. Gang vodiysida va Panjobda Qutbiddin Oyboq hokimiyatni egalladi. Bu joyda vujudga kelgan davlatni uning poytaxtini nomidan kelib chiqib, Dehli sultonligi deb atashdi. Lekin Dehli sultonligi sulton Shamsiddin Eltutmish (1211 – 1236) davridagina mustahkam markazlashgan davlatga aylangan.

Yevropa va Hind tarixchilarining ma'lumot berishicha Dehli sultonligi o'z hukmronligi davri (1206 – 1526 va 1540 – 1555-yillar) da oltita sulola tomonidan boshqarilgan. Quyida ushbu sulolalarni sultonlari birga keltiramiz:

1. Muizziy sulolasi yoki "Qul sultonlar":

- 602/1206-Qutbuddin Aybak;
- 607/1210-Oromshoh;
- 607/1211-Shamsiddin Eletmish (Eltutmish);
- 633/1236-Jaloliddin Roziya Sultonbegim;
- 637/1240-Muizzuddin Bahromshoh;
- 639/1242-Alouddin Masudshoh I;
- 664/1246-Nosiriddin Mahmudshoh I;
- 664/1266-G'iyosuddin Balban;
- 686/1287 Muizzuddin Qayqubod;

–689/1290-Shamsiddin Qayumars¹⁰.

2. Xiljiylar:

- 684/1290-Jaloliddin Feruzshoh II;
- 695/1296-Rukniddin Ibrohimshoh I;
- 695/1296-Alouddin Muhammadshoh I;
- 715/1316-Shihobiddin Umarshoh;
- 716/1316-Qutbiddin Muborakshoh;
- 720/1320-Nosiriddin Xusrav hokimiyatni zo'rlik bilan egallab olgan¹¹.

3. Tug'luqiyalar:

- 720/1320-G'iyosuddin Tug'luqshoh I;
- 725/1325-G'iyosiddin Muhammadshoh II;
- 752/1351-Mahmud;
- 752/1351-Feruzshoh III;
- 790/1388-G'iyosuddin Tug'luqshoh II;
- 791/1388-Abu Bakrshoh;
- 792/1390 Nosiriddin Muhammadshoh III;
- 795/1393-Alouddin Sikandarshoh II;
- 795/1393 Nosiruddin Mahmudshoh II;
- 797/1395-Nusratshoh (Mahmudshoh II bilan taxtga da'volashgan);
- 801/1399-Mahmudshoh II (ikkinchi marta);
- 816-817/1413 – 1414 Davlatxon Lo'diy¹².

4. Sayyidlar:

- 817/1414 Xidrxon;
- 824/1421-Muizzuddin Muborakshoh II;
- 838/1435 Muhammadshoh IV;
- 849-855/1446 – 1451-Alouddin Olamshoh¹³.

5. Lo'diy sulolasi:

- 855/1451-Baxlul Lo'diy;

¹⁰ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135.

¹¹ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135.

¹² Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135-136

¹³ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135-136.

- 894/1489-Nizomxon Sikandar II;
- 923 – 932/1517 – 1526- Ibrohim II;

Bu sulolaning mulkclarini Boburiylar bosib olgan¹⁴.

6. Suriylar (afg'onlar):

- 947/1540-Sherxon Sur;
- 952/1545-Islomshoh;
- 961/1554-Muhammad V Odilshoh;
- 961/1554- Ibrohim III;
- 962/1555-Ahmadxon Iskandarshoh III¹⁵.

Kliment Bosvortning ma'lumotidan farqli o'laroq, tarixchilar Sh.Vohidov va A.Qodirov o'zlarining “Sharqning mashhur sulolalari” asarida Dehli sultonligida sakkizta sulola: Mamluk, Shamsiya, Balban, Xiljiy, Tug'luq, Sayyid, Lodiya va Suriylar hukm surganligini yozadi¹⁶. Tarixiy ma'lumotlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Kliment Bosvortning tarixiy faktlari birmuncha haqiqatga yaqin.

Ta'kidlab o'tganimizdek, Qutbiddin Oyboq mustaqil Dehli davlatining ilk hukmdoriga aylandi. U mamlakatni Feruzko'hdagi G'uriy sultoni nomidan malik sifatida idora etdi. Oyboqni va uning 1290-yilgacha hukmronlik qilgan vorislarini ko'pincha “Qul sultonlar” deb atashardi. Ammo faqat uch kishigina, yani Oyboqning o'zi, Eletmish va Balbanlar kelib chiqishiga ko'ra qul bo'lgan edilar. Ular taxtga chiqishlaridan ancha oldin o'z hojalarining roziligi bilan erkinlikka chiqib olgandilar. Bu sultonlarni “Qul sultonlar” degan nom bilan birlashtirishga yana bir jihatdan asos yo'q, chunki kelib chiqishi jihatidan bitta emas, uchta har xil urug'ga mansub edilar.

Dehli sultonligi yerlarida XII – XIII asrlar chegarasida siyosiy vaziyat murakkab bo'lsada, musulmonlarning mustahkam hokimiyati o'rnatildi. Sultan Qutbiddin Oyboq chavgon o'yini paytida otdan yiqilib o'lganidan so'ng taxtga Shamsiddin Eltutmish (1211- 1236-yillar) o'tirdi. Uning davrida Panjob, Sind, Bengaliya yerlari bosib olindi.

1221-yili Jaloliddin Sind daryosidan kechib o'tganidan so'ng qolgan jangchilarini to'plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlatlar hukmdorlari

¹⁴ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135-136.

¹⁵ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135-136.

¹⁶ Вохидов Ш., Кодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – Т.: Академнашр, 2013. – Б.429-431.

bilan aloqa o‘rnatishga harakat qildi. Biroq Shatra viloyatining hukmdori Jaloliddin Manguberdining og‘ir ahvoldidan foydalanib, unga qarshi hujum qiladi. Bu jangda g‘alabaga erishgan Jaloliddin Manguberdiga Shatra hukmdorining mingta otliq va besh mingta yaxshi qurollangan jangchilari taslim bo‘ladilar va uning tomoniga o‘tadilar. Bu muvaffaqiyatdan so‘ng, tevarak-atrofdagi yangi kuchlar Jaloliddinga kelib qo‘shiladilar.

Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmish Xorazmshohga bunday maktub yo‘llaydi: “Sening ortingda islomning dushmani turgani sir emas. Sen butun musulmonlarning sultonisan. Men bunday paytda senga qarshi bo‘lishni istamayman. Taqdir qo‘lida senga qarshi qurol bo‘lishni xohlamayman. Men kabi odam seningdek insonga qarshi qilich ko‘tarishi kechirilmas holdir!”. Shu tariqa, Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonda davlat barpo qiladi. Sulton o‘z ahvolini yaxshilab oladi, unga tobe hind mulklerida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qilgan. O‘z nomidan kumush va mis tangalar zarb ettirib, soliqlar joriy qiladi. Lekin Hindistonning katta-kichik hukmdorlari Xorazmshohning kuchayib ketishidan xavfsirashardi. Ular o‘zaro til biriktirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo‘lib qoldi. Jaloliddin Manguberdining ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o‘tganlar. Jaloliddin Manguberdi Hindistonda uch yil hukmronlik qiladi. U Hindistonda muqim o‘rnashish, ittifoqchilar topish mushkul ekanligini anglab, 1224-yili bu yerda o‘z noiblarini tayinlab, o‘zi esa Iroqqa yo‘l oladi. Shu tariqa Eltutmish Jololiddinning yurushlaridan xalos bo‘ldi.

Shamsiddin Eltutmish taxtga kelganida sultonlikda murakkab vaziyat hukm surmoqda edi. Muhammad Guriy davrida uning qo‘lida xizmat qilgan sarkardalari Yalduz, Qubocha va Ali Mardon sultonga qarshi bir necha bor fitna tayyorladilar, ammo ular o‘z niyatlariga yeta olmadilar. Gvaylor va Kalinjar viloyatlari esa o‘zlarini mustaqil ekanliklarini e’lon qildilar. Bu orada Qubocha Mo’ltonda o‘z hokimiyatini mustahkamlab, Lahor shahrini ham egalladi. Uning keyingi maqsadi Panjob shahrini ham o‘z davlati tarkibiga kiritib, hududini kengaytirmoqchi edi. Shuningdek, u Dehli, Badaun, Aud va Banoras hududlarida harbiy amoldorlarning qarshiligiga duchor bo‘ldi. 1215-yil Eltutmish Movaraunnahrda hukm surayotgan Sulton Muhammad

Xorazmshoh qo'shinlaridan ham qarshatqich mag'lubiyatga uchradi va G'aznadagi mulkalaridan mahrum bo'ldi¹⁷.

Hech qancha vaqt o'tmasdan Hindistonning shimoliga mo'g'ullarning hujumi boshlanadi. Ular 1221-yil shimoliy Gujarat, Panjob va Sind viloyatlarini talon-taroj qilib, mamlakatni tark etadilar. Ya'ni mo'g'ullarning hujumi hindlar uchun juda og'ir bo'ldi. Mahalliy aholining uylariga o't qo'yilib, ularni asirlikka haydab ketadilar. Shundan keyin sulton armiyani qaytadan tashkil qilib, mamlakat mudofasini tashkil qila boshladи.

Eltutmish davrida tashkil qilingan qo'shin asosan Xurosonliklardan tashkil topgan bo'lib, ular asosan tojik va fors millatiga mansub edi. Shu davrdan e'tiboran fors tili davlat tiliga aylandi. Maxsus davlat kengashi tashkil qilinib, uni "Turkan-i-Chahalgani" ya'ni "40 turk zodagoni" deb atadi. Bu guruh sulton vafotidan so'ng butun hokimiyatni egallab oldi va uni o'z izmiga bo'ysundirdi. Eltutmish davrida bu kengashga davlatning ichki va tashqi siyosat masalalari bilan shug'ullanish vazifasi yuklandi. Ya'ni Dehli sultonligi taraqqiyotda bir pog'ona oldinga siljidi. Islom dinining sunniylik oqimi mamlakatning asosiy diniy e'tiqod shakliga aylandi¹⁸.

Musulmon feodallari sulton atrofida jipslashgan edilar. Ularga nisbatan dushman kayfiyatidagi mahalliy aholining ko'p bo'lganligi shuni taqozo etardi. Sultonlikda yer egaligining asosiy shakli boshqa musulmon davlatlaridagi kabi - iqtodan iborat edi. Iqto katta yerlar, ba'zida butun viloyat ko'rishida bo'lgan va uni olgan amir yoki maliklar yig'ilgan soliqning 10-20% ini o'zlarida qoldirishlari va uni harbiy qo'shinga sarflashlari zarur edi. Eltutmish davridayoq Dehli atrofidagi qishloqlarni sulton o'zining shaxsiy gvardiyasi otliq jangchilaridan 2000 kishiga iqto sifatida bo'lib berdi. Eltutmish vafotidan so'ng o'g'il vorislarning taxtga noloyiq ekanliklari sababli qisqa muddat davomida sultonlikni Roziya sultonbegim idora qildi.

Turk zodagonlari va sultonlar o'rtasidagi taxt uchun kurashlardan so'ng "Turkan-i-Chahalgani" ya'ni "40 turk zodagoni" rahbarlari sultonlikda o'z hukmronliklarini boshlashdi. Aslida ular Roziya sulton o'limidan so'ng sultonlik hokimiyatiga kuchli ta'sir o'tkazib kelayotgan edi. Ular Bahrom Shoh (1240 – 1242)

¹⁷ Синха Н. К., Банерджи А. Ч. История Индии. – М.: "Иностранной литературы", 1954. – С.149.

¹⁸ Бонгард К. А., Левин Г. Г. История Индии. – М., 1969. – С.118.

va Masudshoh (1242 – 1246) larni taxtga olib chiqib, amalda o’zlari mustaqil ravishda sultonlikni boshqarishdi. Masudshohning vafotidan so’ng taxtni Nosiriddin Mahmudshoh egalladi, biroq u yosh bo’lganligi uchun hokimiyat bosh vazir Ulug’xon (G’iyosiddin Balban) qo’lidan to’plandi. G’iyosiddin Balban o’z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida qizini yosh sultonga nikohlab berdi. Lekin, ibn Battutanining ma’lumotiga qaraganda Balban 1265-yil Nosiriddin Mahmudshoh zaharlab o’ldirib yuboradi va taxtni rasman o’zi idora qila boshlaydi.

G’iyosiddin Balban davrida Hindistonda diktatura qaror topdi. U rajputlarning ko’plab hujumlaridan so’ng, zodagonlarning qo’shinga ega bo’lishlarini taqiqlab qo’ydi. U hokimiyatni hech kim bilan, hatto o’z qarindoshlari bilan ham baham ko’rishni istamadi. U davlat manfaatlari yo’lida qarindoshlarini ham ayab o’tirmadi. U “40 turk zodagoni” guruhining mamlakatdagi ta’sirini kamaytira oldi va yaxshi tayyorgarlikka ega qo’shin tuzdi. U qo’shin “Devon-i Arz” deb ataldi. Bu qo’shin yordamida mo’g’ullar hujumi qaytarib qolindi va mamlakat ichidagi ba’zi viloyatlar – Doab, Mevat, Avatlarning isyonini yer bilan yakson qilindi. Ya’ni Balban mamlakatni sarhadlarini kengaytirgan hukmdor sifatida emas, balki siyosiy hokimiyatni kuchaytirgan sulton sifatida Hindiston tarixida qoldi¹⁹.

U 1287-yil vafot etganidan so’ng nabirasi Qayqubod qisqa muddatda taxtni boshqardi. Keyin mamlakatda Qayumarsning hukmronligi boshlandi. Lekin uning hokimiyati unchalik ham mustahkam emas edi. Bu davrda mamlakatning shimoliy sarhadlarini mog’ullarning hujumlaridan himoya qilayotgan Jaloliddin Feruzshohning xalq orasida obro’si oshib Ariz-i-Mumalik ya’ni “Harbiy vazir” degan nom oladi. Feruzshoh 1290-yil Qayumarsni o’ldirib, hokimiyat tepasiga chiqdi va o’zini sulton deb atadi. Natiajada Hindistonda Xiljiylar sulolasini davri boshlandi.

Xiljiylar kelib chiqishiga ko’ra turkiy qabilalardan edilar (ular kelib chiqishlari jihatidan boshqa etnik guruh bo’lib, keyinchalik turkiylashtirilgan bo’lishlari ham mumkin). Ular Sharqiy Afg’onistonda istiqomat qilganlar. Hozirgi afg’on-gilzoiyalar ham ularning avlodlari bo’lishi mumkin. Muizzuddin zamonida G’uriylarning

¹⁹ <https://www.britannica.com/place/Delhi-sultanate>

Hindistonga harbiy yurishlarida Xalaj qabilasi sezilarli o'ren tutgan²⁰. Bengaliya va Sharqiy Hindistonga islomni olib kelgan odam ham Ixtiyoruddin Muhammad Xiljiy bo'lgan edi. Feruzshoh II ning birinchi navbatdagi vazifasi mo'g'ullarni o'z mulkiga yaqin yo'latmaslik edi, lekin shunga qaramay, uning sultanati davrida islomni qabul qilgan mo'g'ullarning ancha-munchasi Dehlining tevarak-atrofida joylashishga ijozat oldi²¹. Jaloliddin Xiljiy taxtni egallaganda 70 yoshda edi, shuning uchun ham u taxtni 6 yil davomida boshqardi xalos va uning o'rnini Alouddin Xiljiy egalladi.

Alouddin Xiljiy Jaloliddin Feruzning jiyani bo'lib, tog'asi davrida Amir-i-Tuzuk (tadbirlar tashkilotchisi) degan martabaga ko'tarilgan. U tog'asining yurushlarida muvaffaqqiyatli qatnashadi va Kara va Avad viloyatlari unga iqto qilib beriladi. Shuningdek, u ham mamlakatning harbiy vaziri etib tayinlanadi. Alouddin Xiljiy o'zining harbiy mahoratini Devagiri uchun bo'lgan yurushlarda ko'rsatib qo'ydi va 1296-yil iyul oyida poytaxtga qaytib tog'asini o'ldirib, uning o'rnini egallagan edi. U hokimiyat ishlariga ulamolarning aralashuvini keskin kamaytirishga erishib, G'iyosiddin Balbanning siyosatini davom ettirdi. Armiyada esa qat'iy tartib o'rnatdi.

Sultonligi paytida Alouddin Xiljiy mahalliy feodallarni to'la markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi va davlat qonunlarini buzgan amaldorlarga nisbatan beshafqat bo'lган, soliq yig'ishda xatoga yo'l qo'yganlarni tayoq bilan kaltaklatib, kishanlab zindonlarga tashlagan, siyosiy raqiblarini esa qatl ettirgan. Murakkab politsiya mahkamasi barpo etildi, bir-biriga bo'ysunmaydigan uchta maxfiy xizmat idoralari tashkil etildi. Shu xizmatlar yordamida sulton mamlakatda tartib-qoidalarni qat'iy amal qilinishini nazorat qilgan. Alouddin o'ziga qarshi fitnalar uyushtirilishidan xavfsirardi. Zodagonlarni bir-birlarini xonadonlariga borishlari va mehmonorchilik uyushtirishlarini taqiqlagan, chunki ularni uchrashuvlardan sultonga qarshi fitna tayyorlashda foydalanishlaridan gumonsirardi.

Alouddin Xiljiy davrida qilingan eng katta islohotlardan biri bu bozor munosabatlarining tartibga solinishi bo'ldi. U mamlakat armiyasini ta'minotini yaxshi qilish uchun mamlakatdagi tovarlar uchun qat'iy narx belgilab qo'ydi. Shuningdek, u mamlakatdagi bozorlarni 3 turga bo'ldi: 1-Mandi deb atalib, asosan ga'lla bilan savdo

²⁰ <https://www.britannica.com/place/Delhi-sultanate>

²¹ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 139.

qilingan, 2-Sarai adl bo'lib, u yerdan kiyim-kechak xarid qilishgan va nihoyat 3-bozor turida esa otlar, qullar savdosi amalga oshirilgan.

Xiljiy bu bozorlarni nazorat qilish uch Shahna-i-Mandi deb nomlangan maxsus lavozim tasis etadi. Undan tashqari yana ikki lavozim: barid (nazoratchi ofitser) va munhiyans (maxfiy josus) mavjud edi.

Alouddin Xiljiy 1297-yil o'z armiyasini Gujarat shahriga jo'natdi. Bu armiya Anhilvara shahrini qamal qildi va Gujaratni egalladi. Qirol Karan Dev o'z qizi Debal Devi bilan mamlakatdan qochib ketdi. Natijada bu yerlar ham sultonlik tarkibiga olindi. 1299-yil Gujaratning bitmas-tuganmas boyliklariga to'la ega chiqiladi va gujarotliklar sulton armiyasini arab otlari bilan ta'minlab turish majburiyatini oladilar. Lekin uning armiyasi Ramhathor viloyati uchun olib borilgan urushlarda katta talofat berdi va bu yurushlarda sarkarda Nusratxon ham halok bo'ldi.

U o'zini Iskandari Soniy deb hisoblab, buyuk sultanat barpo etishni hayol qilardi. Amalda esa, u shimoli-g'arbiy chegaralarida Chig'atoj mo'g'ullari tahdidiga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lган. Mo'g'ullar 1306-yilga qadar Hindistonga tez-tez bosqinlar yasab turishgan va Dehligacha ham yetib borishgan. Ammo Alouddin o'zining harbiy niyatlarini asosan janubiy Hindistonda - Vindhya tog'larining janub tomonidagi badavlat hududlarda amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bu joylarga hali musulmonlar yetib ulgurmagan edi. XIII asr oxirida Alouddin Yadavlar davlatining poytaxti Devagir (Devogir)ga hujum qildi. Bu hujum unga juda katta boylik keltirdi. Keyinchalik u bu boylikdan sultonlikni egallab olish yo'lida foydalandi. Taxtga mustahkam o'rashib olgach, u Dakanning eng janubiy qismiga lashkar tortdi va uni 1306 – 1307-yillardagi istilolar natijasida egalladi²².

1303-yil Rajputanining Chittor viloyatini egallagan Alouddin bu viloyatning nomini o'g'lining nomi bilan Xizrabod deb atashlarini e'lon qildi. Ain-ul-Mulk boshchiligidagi sultonlik qo'shinlari Ujjan, Malva, Mandu, Dar va Chanderi viloyatlarini zabit etdi. Lekin u janubiy viloyatlarni zabit etmay, u yerkarning hukmdori Ramachandra bilan kelishuvga erishdi. Natijada janubiy viloyatlar sultonlik tarkibiga noiblik sifatida kiritildi. Shundan so'ng Alouddinning Janubiy viloyatlarning yana bir

²² Босворт К. Е. Мусулмон супоралари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 141.

yetakchisi Malik Kafur o'rtasida uzoq yillik urushlari boshlanib ketdi. Bu mojaro 1316-yil sulton vafotiga qadar davom etdi. Malik Kafur esa katta qo'shin bilan Dehliga yurush qilib taxtni egallab oldi. U sultonlik taxtini uzoq muddat davomida qo'lida tutib tura olmadi va o'rnini Qutbiddin Muborakshohga bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Bunday taxt vorislari almashinuvi bir necha bor sodir bo'ldi va shunday kurashlarning birida Qutbiddin Muborakshoh ham Xusravxon tomonidan o'ldirib yuborildi.

Gujarotlilarning past tabaqasidan chiqqan, o'z vaqtida hindilar dinidan qaytgan, Xiljiy sulton Muborakshoh I ning erkatoyi bo'lgan Xusravxon islomdan ham qaytib, Dehlida taxtni egallab olgandan keyin Xiljiylar urug'ining hukmronligi xotima topdi. Xusrav davrida sultonlikda armiya ham hokimiyatdan norozi bo'la boshladi; bunga mamlakatda boshlangan iqtisodiy tushkunlik sabab bo'ldi va harbiy yetakchilardan biri bo'lmish G'iyosiddin Tug'luq hokimiyat tepasiga chiqdi va Dehli sultonligida Tug'luqiyalar sulolasini hukmronligi boshlandi.

Tug'luqiyalar sulolasini asoschisi G'iyosiddin Tug'luq 1320 – 1325-yillarda davomida mamlakatni idora etdi va taxtni uning vafotidan keyin Muhammad Tug'luq egalladi. Bu sulola esa Dehli siltonligida 1412-yilga qadar hukm surgan. Muhammad Tug'luq Xiljiylar davrida boshlangan Dekan viloyatidagi istilolarni davom ettirdi. Yurushlar natijasida Varangal va Mabar viloyatlar anneksiya qilindi. Muhammad Tug'luq sultonlikni 1351-yilga qadar boshqardi²³.

Muhammad ibn Tug'luqjuda g'alati shaxs bo'lgan; u fors tilini juda mukammal bilgan, tabiiy ilmlardan yaxshi xabardor bo'lgan, shuningdek, u mohir sarkarda ham edi, lekin ayni choqsa, fe'li-atvorining betayinligi va mulohazalarining g'aribligi bilan ajralib turardi. Tug'luq o'z hukmronligini otasi paytida ajralib ketgan knyazliklarni bo'ysundirishdan boshladi. O'zini Iskandar Zulqarnaynning davomchisi deb e'lon qilgan sulton davrida Hindiston yarimoroli to'liq birlashtirildi. Ammo Tug'luq sultonligini boshlanishida unga nisabatan bir necha bor isyon ko'tarildi. Ulardan biri Muhammadning jiyaniga Sagar viloyati hukmdori Gurshasp edi. Lekin uning isyoni 1326 – 1327-yillarda to'la bostirildi. Gurshaspni qo'lga olib uni Dehli hibsxonasiga jo'natildi. Devagirida hindu yetakachisi Kondhany boshchiligi qo'zg'olon boshlandi va

²³ <https://www.britannica.com/place/Delhi-sultanate>

bu borada sulton jiddiy bosh qotirishiga majbur bo'ldi. Shuningdek, Mo'ltonda Bahramxon ham bosh ko'tardi. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, tarixchi Barani quyidagi ma'lumotni keltiradi: Ganga va Jamna daryolari orasidagi hududlarda soliqlarning nihoyatda og'irligi tufayli 20 marta isyon bo'lib o'tdi²⁴. Harbiy yurishlarda omadli Muhammadning mamlakat ichidagi soliq islohoti, hosilning 1/4 qismini undirish amalga oshmay qoldi. Sultonning "baxti yurushib" Hindistonda 7 yil qatorasiga misli ko'rilmagan qurg'oqchilik bo'lib, xalqqa katta kulfatlar keltirdi. Ocharchilik aholining qirilishiga olib keldi. Ko'chalarda o'lik otlarning terisi ustida talashayotgan ayollarni ko'rish mumkin edi.

Sulton hokimiyati inqirozini o'zi o'tkazgan ikki muvaffaqiyatsiz tadbiri ham tezlashtirdi. Birinchidan, mamlakatning barcha hududlariga bir xil masofada joylashgan shaharga poytaxtini ko'chirdi. Qadimgi Devagiri shahrini Davlatobod (g'alaba shahri) deb nomini o'zgartirdi. Poytaxtni Devagiriga ko'chirishdan maqsad shimoliy hududlarni ham davlat nazoratiga kiritish edi. Davlat ahamiyatiga molik hisoblangan barcha insonlar va unga saroydagilar bilan birga Dehlining ko'plab hunarmandlari va savdogarlarini ko'chishga majbur qildi. Dehli shahri ham shundayligicha qoldirib ketilmadi va sultonlikning ikkinchi iqtisodiy markaziga aylandi. Oradan 2 yil vaqt o'tgandan so'ng poytaxni yana Dehliga qaytarishga majbur bo'ldi va shu davrdan boshlab Xitoy, Eron va Misr bilan diplomatik aloqalar qaytadan tiklana boshladi. Savdo-sotiq daromadning asosiy manbayiga aylanib, aholining daromadini oshishiga xizmt qildi²⁵.

Ikkinchidan, muvaffaqiyatsizlik uning pul sohasidagi islohoti edi. Muhammadning maqsadi bo'yicha oltin va kumush pullar (tanka) bilan teng muomalada bo'lishi mo'ljallangan mis pullar (Jittal) tez orada qadrsizlanib mamlakat moliyasiga katta zarar yetkazdi.

Poytaxtning ko'chirilishi Tarmashirin boshchiligidagi mo'g'ullar hujumiga yo'l ochib berdi. Ular Panjob viloyatiga bostirib kirib, 1328 – 1329-yillarda mahalliy

²⁴ Синха Н. К., Банерджи А. Ч. История Индии. –М.: "Иностранной литературы", 1954. – С.149-155.

²⁵ Anup Singh. Origin and ruling period of Delhi sultanate// International Journal of Academic Research and Development. Volume 3. Impact Factor: RJIF 5.22. – New Delhi, 2018. – P. 83-86.

aholini talon-taroj qildi. Chegaralarni qarovsiz qoldirilishi mo'g'ullar tomonidan Mo'lton va Lahor hududlarini ishg'ol qilinishiga olib keldi.

U 1329-yilda Movarounnahrli chig'atoy mo'g'ul Tarmashirinning hujumini muvaffaqiyat bilan barbod etdi, ammo uning Elxonlarning zaiflashganidan foydalanib, Pomir orqali O'rta Osiyog'a bostirib kirish haqidagi rejasি xomxayoldan boshqa narsa emas edi. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, Muhammad ibn Tug'luqning shunday niyati chindan ham bo'lgan-bo'limgani uncha aniq emas, chunki manbalarda bu masalada aniq bir gap aytilmagan. Muhammad ibn Tug'luq Hindiston chegaralaridan tashqaridagi musulmon dunyosi bilan diplomatik aloqalarga ega bo'lgan va sultonlik nufuzini bir pog'ona yuksalishiga erishdi²⁶.

Ammo Muhammad Tug'luq davrida Dekan yarimoroli boy berildi: 1335-yilda Tamiliyadagi musulmon noibi poytaxti Madurai shahri bo'lgan Maduriston sultonligi ajralib chiqdi. Bir yil o'tgach Hindistonning janubida, Krishna va Tungabhadra daryolari ortida qudratli Vijayanagar davlati yuzaga keldi. Sultonlikda Bengaliya va Orissa ajralib chiqdi. Dekan armiyasida qo'zg'olon ko'tarilib, uning harbiy boshliqlari mustaqil davlat tuzishdi, ulardan biri hukmdor bo'ldi. Uning nomi Baxman bo'lib, davlatni Baxmani davlati deb nomlashdi. Sultan Muhammad Tug'luq davrida katta yer egalari soliqlar miqdorini 10-12 barobarga oshirganlari uchun, dehqonlar o'z yerlarini tashlab qochib, o'rmonlarga borib berkinishadi va qaroqchilar to'dalarini tashkil qiladilar. 1338-yil Malvada sultonning jiyani unga qarshi isyon ko'taradi, biroq u qo'lga olinib terisi shilinadi. 1340-yil Bengal viloyatida ham isyon ko'tarilib, u mustaqillikka erishadi (1340 – 1538)²⁷. Muhammad Tug'luq hayotining so'nggi yillarida domiy qatl qilishlar va azob berishlar uning kundalik ishiga aylandi, shuning uchun xalq unga "Qonxo'r sulton" laqabini berdi. Shu tariqa Muhammad Tug'luq o'z hukmronligini poyoniga yetkaza bordi.

1351-yilda Muhammad Tug'luq vafotidan so'ng taxtni uning jiyani Feruzshoh tug'luq egalladi. U o'z hukmronligini Dehli shahrining oldingi qudratini tiklashdan boshladi. Dehli shahri yana xalqaro savdoda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Dastlab, Feruzshuh Tug'luq davrida soliqlar kamaytirilib, davlat yerlari dehqonlarga

²⁶ Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 142-144.

²⁷ Вохидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – Т.: Академнашр, 2013. – Б.433.

ijaraga bo'lib beriladi, ya'ni musulmon olamiga xos bo'lган xiroj, zakot, jizya va ushr mamlakatning asosiy soliqlariga aylanadi. Uning boshqaruvi paytida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikning yuksalishi, oqilona boshqaruvi sultonga xalq homiysi sifatida shuhrat keltiradi. Feruzshoh beva ayollar va yetim bolalarga g'amxo'rlik qiluvchi Devon tashkil qiladi va u Devoni ikxarat deb ataladi. U Qizil qa'la yonida Feruzobod shahriga asos soldi. Bu shahar keyinchalik Feruz Shoh Kota degan nom oladi²⁸.

Shuningdek, u amaldorlarning faoliyatini qattiq nazoratga olib, poraxo'rliklarning barchasini tag-tomiri bilan qo'porib tashladi. U mamlakatning sug'orish tizimini isloh qilib, ko'plab kanallar, suv to'g'onlarin va ko'priklarni bunyod ettirdi. G'arbiy Yamuna kanali bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun ham ko'p tarixchilar "Hindistonning ikkinchi Akbari"deb ataydilar. Lekin Feruzshohning hukmronligi ham kamchiliklardan holi emas. Chunonchi, Feruzshohning hukmronligi davridagi asosiy muommo va kamchiliklar diniy faoliyati faoliyati bilan bog'liq edi. Chunki u musulmon fanatlaridan hisoblanib, bor kuchi bilan mamlakatda islom dinini yoyishga harakat qildi. Sulton davrida jizya solig'ni undirish juda qat'iy ko'rinishda tashkil qilinib, so'fiylar va shialarga shavqatsiz munosabatda bo'lingan. Biroq, mahalliy aholining asosiy qismi hinduiylikda ekanini hisobga olinmagan. Bu esa ko'p hollarda diniy mojarolarning asosiy omili edi. Feruzshoh Tug'luq shaxsiy sifatlarda ham biroz oqsoq bo'lган bo'lib, ichkilikbozlik uning sevimli mashg'ulotidan biri hisoblanar edi, hattoki bu islom dinida qoralansada. Sabr degan tushunchaning umuman mavjud emasligi, harbiy jur'atsizlik va harbiy jihatdan anchayin mahoratsizlik unga ko'p hollarda pand berdi. Masalan, 1353 – 1354 va 1359 – 1361-yillarda Bengaliya ustiga qilingan harbiy yurushlarda hech qanday natijaga erishilmadi. U shuningdek, Orissa va Nagarkot-Kangra viloyatlari o'z mustaqilligin e'lon qilib olgan hind zodagonlariga qarshi harbiy harakatlarni olib bordi. Umuman olib qaraganda Feruzshoh o'zini siyosiy jihatdan ko'rsata olmadi. Faqatgina ma'naviy hayotni bir muncha o'z iziga solishga erishdi xalos. Armiya esa jangovarlik ruhini yo'qotdi. Chunki Feruzshoh davrida harbiylarga maosh o'rniga iqto yerlari taqdim etilar edi.

²⁸ Anup Singh. Origin and ruling period of Delhi sultanate// International Journal of Academic Research and Development. Volume 3. Impact Factor: RJIF 5.22. – New Delhi, 2018. – P. 83-86.

Natijada ular o'z maoshlarini oddiy dehqonlardan soliq tariqasida undirishga majbur bo'lgan. Bu esa mamlakat bo'y lab yagona soliq tizimini o'z izidan chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Soliqlarning hilma-xilligi ziroatchilarni qo'zg'olon ko'tarishga majbur etgan.

XIV asrda Hindiston tamomila tarqoq feudal mamlakat edi. Juda ko'p musulmon va hind feudal davlatlari bir-birlari bilan uzlusiz kurash olib borardilar. 50 – 60- yillar davomida sultonning vassal rojalar bilan olib borgan urushlari natijasida Bengaliya, Sind, Orissa va Gujarat g'oyat xonavayron bo'lgan edi. 1366-yilda Gujaratdagi qo'zg'olon bostirilgan, sulton Feruz qo'zg'olonining asosiy o'choqlarida hindlarni batamom qirib tashlash haqida buyruq berdi. Shafqatsiz feudal ekspluatatsiyasi va to'xtovsiz ichki feudal urushlari Dehli sultonligi tanazzulining asosiy sabablari bo'ldi. XIV asr 70 – 80- yillarda Dehli sultoni o'z qo'lida qolgan ozgina yerlarni ham himoya qilishga qodir emasdi. Markaziy hokimiyatning bu zaifligi yomon oqibatlarga olib keldi, Hindistonni yangi chet el hujumlariga qarshi qarshilik ko'rsata olmaydigan qilib qo'ydi.

XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridayoq ayrim shimoliy davlatlar otryadlari Shimoliy Hindiston yerlariga bostirib kirdi va hatto Lohur va Dehli kabi katta shaharlarning darvozalarigacha kela boshladi. Ko'chmanchilarning hujumlari, qiyinchilik bilan bo'lsa-da, qaytarilardi. Ammo shimoliy o'lkalarning vayron qilinishi, aholining talanishi va buning natijasida qishloq xo'jaligi, sanoat va savdoning tushkunlikka yuz tutib ketishi Hindistonning iqtisodiy ahvoliga tobora yomon ta'sir qildi. XIV asr oxirlarida shimoliy Hindiston Amir Temurning qo'shnlari tomonidan bosib olindi.

Amir Temur 1398-yilning kuzida 120 ming askari bilan Hindistonga bostirib kirdi. Dehli sultoni shu qadar katta armiyaning hujumini to'xtata olmadi. Temur Hind daryosidan o'tib, Panjobdagi shaharlarni birin-ketin ishg'ol qildi²⁹. Shu yilning 17-dekabr kuni 120 filbon va mingta yaxshi qurollangan jangchilar mag'lubiyatga uchradi va sulton Gujarat tomon chekindi. Poytaxt o'lja tarzida askarlar ixtiyoriga topshirildi. Poytaxtning o'n minglab aholisi qirib tashlandi, shaharliklarning bir qismi qochib

²⁹ <https://www.britannica.com/place/Delhi-sultanate>

ketdi, ko'plari asir olindi. Dehlidagi juda ko'p hunarmandlarni - toshtarosh ustalar va boshqa binokorlarni Temur keyin g'alaba sharafiga Samarqandda katta jome qurishga majbur etish uchun, asir qilib olishni buyurdi. Amir Temur "juda ko'p asir va o'lja olib", 1399-yilning bahorida Samarqandga qaytib keldi³⁰.

So'nggi Tug'luqiyilar juda nochor hukmdor bo'lishgan va sultonlikning ojizligidan foydalangan Amir Temur 1398 – 1399-yillarda Hindistonga bostirib kirib, uni xonavayron qilgan. Natijada sultonlikning siyosiy yaxlitligidan putur ketdi va viloyatlarda hokimiyatni turli-tuman mahalliy musulmon hukmdorlari egallab oldi. Chamasi qirq yil atrofida hokimiyat Temurning Multondagi sobiq hokimi Xidrxon (va uning avlodlari) qo'lida bo'ldi. U royot-i a'lo ("baland ko'tarilgan bayroq") degan unvonga qanoat qilib, davlatni Temur va Shohrux nomidan boshqargan. Shu davrdan boshlab Dakan viloyati, Vijayanagar va Panjab viloyatidagi zodagonlar o'z mustaqilliklarini e'lon qilib, Dehli hukmronligini tan olishdan bosh tortdilar.

Amir Temurning Multondagi sobiq hokimi Xidrxon davrida Sulton Davlatxon maglubiyatga uchratilib, Dehli shahri ishg'ol qilinadi va Sayyid sulolasiga asos solinadi. Bu sulola Hindistonni 1414 – 1451-yillarda idora qilgan. Sayyidlarning haqiqiy hukmronligi Dehli atrofidagi kichkina viloyatdan nariga o'tmas edi. Dehlidagi turkiy va afg'on harbiy guruhlari o'rtasida Sayyidlarning obro'yi katta emasdi, chunki ularning avvalgi zamonlarda Temuriylar bilan yaqin aloqada bo'lgani hammaning esida edi. Shuning uchun ham mahalliy aholi ularni yaxshi munosabatda qabul qilmadi.

Taxtni Sayyidlar sulolasi egallagan bo'lsada, ular ko'p jihatdan Temuriy Shohrux bilan yaxshi munosabatda bo'lishgan. Xidrxon davrida davlat chegarasi Dehlidan nariga o'tmagan. Xidrxondan so'ng taxtni uning o'g'li Muborakshoh zabit etib, uni 13 yil davomida idora etadi. Muborakshoh hukmronligini Gang va Jamna daryolari orasidagi hindlar bilan kurashga sarfladi. Lekin 1434-yil fevral oyida sultonni vazir Sarvar-ul Mulk boshchiligidagi fitnachilar o'ldirib yubordilar. Sarvar-ul Mulk davlatni uzoq muddat davomida idora qilishga muvaffaq bo'la olmadi. Uni Muhammadshoh egalladi. Biroq na bu sulton na undan keyin sulton Alam shoh ham davlatni boshqarishga loyiq edilar. Chunki, aynan mana shu Alam shoh davrida bosh vazir

³⁰ Семенов В. Ф. Ўрта асрлар тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б.394-395.

Hamidxon mamlakatni boshqarish va qo'shinni mustahkamlashh uchun kelib chiqishi afg'onlardan bo'lgan Lo'diyalar sulolasidan yordam so'radi.

Zamindorlar yordami bilan taxtni egallagan Lo'diyalar sulolasi tez orada armiyadagi boshqaruvni to'la o'z qo'liga oladi va o'z hukmronligini mustahkamlashga erishdi. Bu sulolasining asoschisi Bahlul Lo'diy (1451 – 1489) edi. U mamlakatni idora etishda mahalliy zodagonlarning yordamidan tashqari afg'on yer egalarining yordamidan ham foydalanishga erishdi. U o'z hokimiyatini ijtimoiy tayanchini barpo etishga intilib, Hindistonga harbiy xizmat qilish uchun afg'on qabilalarini taklif etdi. Sulton Bahlul Lodi feodal zodagonlarni o'z irodasiga bo'ysundirdi³¹. U tez orada Mevat va Doab viloyatlaridagi isyonlarni qonga botirdi. Lo'diyalar 1476-yil Jaunpur viloyatining isyonkor qo'shinlarini yengib, Dehlining hukmronligini ularga tan oldirdi. Shuningdek u Bixor, Dholpur, Narvar, Gvaylor va Nagor viloyatlarini Dehligi bo'ysundirdi. Bahlul Lo'diy o'limidan biroz avval sultonlikni o'g'llariga taqsimlab beradi. Xususan, Jounpu Barboqqa, Laknao Azam Humoyunga, Badaun Jahonxonga, Panjob va Dehli shaharlari esa Nizomxonga taqdim etiladi. Bahlul Lo'diydan so'ng taxtga ko'tarilgan Iskandar musulmon bo'limganlar bilan shavqatsiz bo'ldi va ularga qaytadan jizya solig'ini soldi.

Iskandar (1489 – 1517) yana amirlar va zodagonlarni boshqaruvdan chetlatib, yakka hukmronlikka erishdi. U shunchaki hukmdor emas, balki manaviy hayotning haqiqiy sarboni edi. U o'z faoliyati davomida ko'plab asarlar yozib qoldirgan bo'lib, "Gulrux"degan taxallus ostida ijod qiladi. U 1505 – 1505-yillarda Agrani poytaxtga aylantirish va savdo-iqtisodiy markazga aylantirish to'g'risida farmon beradi. 1517-yil Iskandarning vafotidan so'ng musulmon zamindorlari Ibrohim Lo'diyning taxtga kelishiga ko'maklashishdi. Chunki u taxt uchun kurashlarda akalari Jalolxon va Kalpilarga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ladi. U forsiyzabon xalqlarning hokimiyatda muhim lavozimlarni egallashi tarafdori bo'lgan va uning bu ishi hindlar orasida nozoriliklarni keltirib chiqargan. U 1526-yil 21-aprel kuni Hindistonga bostirib kirgan Zahiriddin Muhammad Bobur bilan kurash olib borishga majbur bo'ldi. A'yonlardan kimdir o'sha paytlarda Qobulda hukmdorlik qilib turgan temuriy Boburni

³¹ Босворт К. Е. Мусулмон суполалари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 140-144.

mamlakatga chaqirgan edi va u Panipat yonidagi jangda galaba qozondi, Ibrohim o'ldirildi va Hindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligi boshlandi.

Biroq bu hali Boburiylar sulolasining hukmronligini uzil-kesil qaror topishi emas edi. Boburning o'g'li Humoyun hukmronlik qilgan zamonda Sherxon Sur Hindistonda o'n besh yilga afg'onlar hukmronligini tikladi. Bixorda turib harakat qilgan Sherxon Kanavj jangida (1540) Humoyunni tor-mor keltirdi va shu tariqa Bobur mehnatlarini chippakka chiqardi. Sherxon faqat harbiy yurishlari bilangina mashhur emas, u ayni chog'da juda muhim moliyaviy yangiliklar joriy qilgan va yer islohoti o'tkazgan. Uning hukmronligi davrida ko'plab istilochilik yurushlari amalga oshirilgan. Xususan, 1542-yil Sherxon Sur Chanderi boshliq Malva qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, davlat chegaralarini shimoliy-sharqiy tomonga qarab anchayin kengaytirdi. Shuningdek, u Marvar, Ramhambhor, Nagor, Ajmir, Merta Jodhpur va Bikaner viloyatlarini ham o'ziga bo'ysundirib, Bengaliyadagi afg'on xalqining isyonini ayovsizlarcha bostirdi. Lekin Sherxon Sur Kalinjar qal'asida o'tochar qurolning noto'g'ri harakatga keltirilishi natijasida bevaqt vafot etdi va bu omil Hindistonda kuchli afg'onlar davlatini barpo etilisihga imkon bermadi. Uning vorislari o'z zaifliklari sababli taxt tepasida uzoq turolmadilar, ular Humoyunga hokimiyatni qaytarib berishga majbur bo'ldilar. Natijada. 1555-yil Humoyun Eron qo'shinlari yordamida taxtni qaytarib oldi va Sultonlikning Suriy sulolasi ham o'z taqdirini baxtsizlikda tugatdi.

Bu ko'rinishdagi tarixiy faktlarning mavjudligiga qaramay, ko'plab tarixchilar Suriylar sulolasini Dehli sultonligi tarixiga qo'shmaydilar va Dehli sultonligini Boburning hujumidan so'ng barham topgan deb hisoblashadi. Ammo Suriylar o'z sulolasini Boburiylar vorisi deb emas, balki Dehli sultonligi davomchisi deb hisoblashgan, chunki Boburdan oldin hukm surgan Lo'diylar sulolasi ham Suriylardek afg'on qabilalaridan edi. Shundan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Suriylarning ham o'zlarini sultonlik vorisi deya hisoblashi ham haqiqatga yaqin.

1.2. Roziya sultonbegim – Dehli sultonligining ayol hukmdori

Islom dunyosida turkiy davlatlarning roli va ahamiyati oshib bordi. Turkiy xalqlar an'anasiga ko'ra ayollarning mamlakatni idora etishlari ta'qiqlanmagan edi. Shuning uchun ham biz XII asr davomida hukmronlik qilgan bir qator ayol monaxlarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, Go'rxon vafotidan so'ng uning o'rnini rafiqasi Koyunk xotun egallagan³². Minhaj-us Sirajning ma'lumot berishicha, Xorazm ham ayni shu asrda ayol kishi tomonidan boshqarilgan va iqtisodiy va ma'daniy jihatdan anchayin taraqqiyotga erishgan. Yana bir misol, Abbosiylar sulolasining vakili Malikat al-Muslimin ham ma'lum muddat davomida xalifalikni boshqargan. O'z nomidan xutba o'qittirib, tangalar zARB ettirgan³³.

Tarixdan ma'lumki, musulmon davlatlarida ayollarning hokimiyat tepasiga kelishi va uni idora etishi ko'p ham ko'zga tashlanavermaydigan holat. Lekin Hindistonda musulmonlarning hukmronligi o'rnatilgandan so'ng, ayppardan ham humdorlar mamlakatni boshqargan. Dehli sultonligi taxtini Eltutmishning vafotidan so'ng, uning o'g'li yetti oy davomida idora qildi. Shundan so'ng hokimiyatga egalik qilish huquqi Eltutmishning qizi Roziya sultonga meros bo'lib o'tdi. U Mamluklar sulolasidan chiqqan yagona ayol hukmdor bo'lib, uning hukmronligi asosan janglardan iborat bo'ldi³⁴.

Roziya sultonbegim Qutbiddin Oyboqning qizi Qutb Jaandan tug'ilgan nabirasi edi. Otasi Shamsiddin Eltutmish ham Oyboqning sodiq xizmatkorlaridan biri edi. Roziya 1205-yil hozirgi Uttar Pradeshda tavrallud topgan. Roziya sulton yoshligida o'zining tug'ishgan akasi Nasriddin Mahmud bilan birga ulg'aydi. Yoshligidan taxt vorislari bilan birga katta bo'lган uchun Roziya sulton doim erkaklardek libos kiyib yurgan bo'lib, hatto taxtga chiqqanidan so'ng otga minib askarlarni jangga boshlab kirgan.

Roziya sulton Hindistonda juda qisqa muddat davomida hukmronlik qilgan bo'lsada, Dehli tarixida yogona ayol hukmdor bo'lib qoldi. U 1236-yil 19-noyabr kuni taxtni egallagan. Roziya sultonning kelib chiqishi saljuqiy turklardan bo'lib, Dehli sultonligini boshqargan beshinchi sulton hisoblanadi. Hind mahalliy hukmdorlari

³² Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P. 927-928.

³³ Ibn Khaldun. Muqaddama//quoted by Arnold. – London: Cambridge press. – P. 208.

³⁴ <http://haryanatourism.gov.in/Destination/tomb-of-razia-sultan>

Roziya sultonni qobiliyati va bilimini hisobga olib, uni taxtga chiqishiga yordam berishdi va uni qo'llab-quvvatlashdi. Roziya sulton hukmronligiga qadar Hindiston taxti uchun faqatgina erkaklar munosib deb bilishar edi, ammo Roziya davridan boshlab vaziyat o'zgardi. Roziya sulton shunchaki taxtni meros tariqasida qabul qilgan emas, balki o'zining tinimsiz mehnati va shijoati tufayli sulton rutbasiga erishdi³⁵.

Roziya sulton Shamsiddin Eltutmishning eng sevimli rafiqasi, Dehli sultonligining asoschisi Qutbiddin Oyboqning qizidan tug'ilgan farzandi bo'lib, sultonlik saroyi, ko'shki feruziyda o'z davrining yuksak bilimga ega olimlaridan ta'lim oladi. Unda yoshligidan boshlab, harbiy san'at va davlat ishlariga qiziqish paydo bo'lган edi. O'g'il bolalarga xos xarakterga ega bo'lган Roziya asosan bolalar bilan mashq qilar, lekin haramdagi qizlar bilan munosabatlari unchalik ham yaxshi emas edi³⁶.

Otasining hayotligi davrida ham yosh Roziya davlat ishlarida faol bo'ldi va ijtimoiy-siyosiy hayotga o'zini ta'sirini o'tkaza oldi. U shuningdek, erkaklarning sport turlari: qilichbozlik, kamondan o'q uzish, ot choptirish bilan muntazam shug'ullandi. Roziyaning bu ishlar bilan shug'ullanishini onasi istamasada, otasi Shamsiddin Eltutmish rag'batlantirib, undagi boshqaruvchilik xususiyatini, jasurlik va mas'uliyat kabi xislatlarni shakllantirib bordi. Shuning uchun ham Roziya sulton hayoti davomida ayollarga xos liboslarni kiymadi. Sulton Eltutmishning o'gillarning birortasi ham taxtni boshqara olish qobiliyatiga emasdi. Shuning uchun ham Roziyanining boshqaruvchilik xislatiga ishongan sulton uni taxt vorisi etib tayinlagan³⁷. Shu tariqa Roziya janubiy Osiyodagi birinchi musulmon ayol sultonga aylandi. Roziyaning akasi Nasriddin Mahmud esa singlisini taxtga saylab, 1229-yil olamdan ko'z yumadi.

Shamsiddin Eltutmish shu tariqa taxt vorisi masalasini hal qilgan bo'lsada, uning vafotidan keyin sultonning yana bir o'g'li Ruknuddin Feruzshoh hokimiyatni o'zboshimchalik bilan egallab oldi. Uni hind tarixchilar umidsiz va ishonchsiz hukmdor deb hisoblashadi. Ruknuddin davrida davlatning barcha boshqaruv ishlari uning onasi Shoh Turkon qo'lida to'planadi. Shoh Turkonning davlat ishlarida

³⁵ <https://brainly.in/question/334069>

³⁶ <https://www.thebetterindia.com/116257/razia-sultan-first-female-ruler-delhi/>

³⁷ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P. 457-458.

uquvsizligi, sultonlik uchun bir necha tashqi raqiblar ham paydo bo'ldi. Ya'ni G'azna, Bomiyon va Kirmon hukmdori hisoblangan Malik Sayfiddin Qarluq sultonlik sarhadiga bostirib kirdi. Turkiy xalqlar hujumini Eltutmishni yana bir o'g'li G'iyosiddin Muhamman qaytarib qoldi³⁸.

Sultonning muvaffaqiyatlariga qaramay zodagonlar va Turkon Shoh taxtni o'zboshimchalik bilan ma'lum muddat davomida boshqargan Rukniddin Feruzni har jihatdan qo'llashda davom etdilar. Ular Roziyani fitna orqali qo'lga olib, uni yoq qilmoqchi edilar. Lekin Delhi zodagonlarining ko'magiga tayangan Roziyani yengib taxtni egallah oson ish emas edi. Bundan tashqari Roziya turli yo'llar bilan isyonchi amirlar va dushmanlarini o'zi tomonga og'dirib olishga muvaffaq bo'ldi va o'zining ezgu ishlarini qilishga ularni ham chorladi. Rukniddinning onasi Turkon Shoh nazarida xalqning ishonchi Roziyani har qanday fitnadan asrayotgan edi. Chunki yosh sulton Rukniddingga qarshi bo'lган siyosiy kuchlardan oqilona foydalanayotgan edi. Rukniddinni sulton hibsga olinib, 1236-yil noyabr oyida qatl ettirilishiga erishdi va mutloq hukmdorga aylandi. Tarixiy sharoitdan kelib chiqib, biz Roziyaning bu ishini to'g'ri deb hisoblaymiz, chunki mamlakatni markazlashtirish uchun taxt davogarlaridan voz kechish zarur edi. Lekin diniy vakillarining ayrimlari hali ham ayol kishini naqis-al-aql (davlatni boshqarishda zaif) deb hisoblar edi. Shunga qaramay ular Roziya nomiga xutba o'qishga majbur bo'lishdi³⁹.

Ruknuddin hukmronligi davrida mamlakatdagi siyosiy vaziyat izidan chiqib ketdi va taxt uchun siyosiy kuchlar orasida hukmronlik uchun kurash boshlandi. Biroz muddatdan keyin qonuniy valiahd Roziya sulton hokimiyat tepasiga keldi. U xalq orasida Roziyat-ud-din degan faxriy nom bilan ataladigan bo'ldi⁴⁰. U otasi davrida mustaqillik yo'lini tutgan mahalliy hukmdorlar hukmronligiga chek qo'ydi.

Demak, Roziya sultonning taxtga kelishi Dehli sultonligi uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, ayol kishi bo'lismiga qaramasdan jamiyatning barcha jabhalariga alohida e'tibor qaratdi va davlat hokimiyatini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Chunki u otasi davrida ham davlat mansablarida faoliyat olib borib, davlatning

³⁸ Синха Н. К., Банерджи А. Ч. История Индии. – Москва, 1954. – P.152.

³⁹ Agha Mahdi Husain. Futuh -us-Salatin. – New Delhi: Asia Publishing House, 1976. – P. 254.

⁴⁰ Agha Mahdi Husain. Futuh -us-Salatin. – New Delhi: Asia Publishing House, 1976. – P. 252.

hayotidagi kamchiliklardan boxabar bo'lgandi va ma'lum darajada o'z tajribasini oshirgan edi. Hokimiyatni egallagandan so'ng Sulton Eltutmishdan o'rgangan bilmlarini hammasini ishga soldi va muvaffaqqiyatga erishdi.

Roziya sulton mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikka barham berish maqsadida o'zboshimchalik bilan ish yuritayotgan amaldorlar va katta yer egalarining faoliyatiga chek qo'yishga harakat qildi. U bu yo'lda amaldorlarning oldiga ikki yo'lni ko'rsatdi: o'zboshimchalikni tugatish yoxud o'lim. Dastavval u asosiy raqibi hisoblangan bosh vazir Muhammad Junaydini asosli dalillar yordamida o'zining egallab turgan mansabidan istefoga chiqardi va uning harbiy kuchlarini yanchib tashladi. Shuningdek, yosh sulton boshqa zodagonlarga qarshi muvaffaqqiyatli harakat qildi. Hattoki Roziyaning sultonlik taxtiga kelishini diniy vakillar hisoblangan ulamolar ham qarshiliksiz iliq qabul qildilar, ammo katta yer egalari bunga qarshi chiqqan edi⁴¹.

Roziyani taxtga chiqquniga qadar amaldorlar undan vorislik da'vosidan voz kechishga majbur qildilar, ammo bunga sulton rozi bo'lmadi. Musulmon huquqshunoslari ham noiloj yosh sultonaga sodiqlik qasamyodini qildilar. Reaksiyon amaldorlar Roziyaning hukmronligi mustahkamlanganidan keyin ham kurashni davom ettirishga urindilar⁴². Agar Roziya bu muommoni hal qilmaganda, taxtdan voz kechishga majbur bo'lar edi. Biroq Dehli aholisining qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etdi va u tarqoq holdagi siyosiy kuchlarni birlashtira oldi. Roziyaning taxtni egallashi Dehli sultonligida ko'plab siyosiy o'zgarishlar bo'lib o'tganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Minhaj -us Sirajning ma'lumot berishicha, sulton qirollik uchun muhim deb hisoblangan davlat muassasalari, maktablar, tibbiyot maskanlari faoliyatini takomillashtirish uchun misli yoq darajada mablag' ajratgan. Roziya sulton davrida butun Hindiston hududi bo'ylab maktablar va kutubxonalar ishga tushirilib, xalqqa beminnat xizmat qila boshladi⁴³. Garchi islom dunyosida taqiq va qarama-qarshiliklar bo'lishiga qaramay, bu davrdan e'tiboran Hindistonda jamiyat

⁴¹ Nizami K.A. Some Aspects of Religion and Politics During the Thirteenth Century. – New Delhi, 1974. – P. 172.

⁴² Tripathi R. P. Some Aspects of Muslim Administration. –Allahabad, 1958. – P. 28-30.

⁴³ Фролова И. В. Статус женщины-мусульманки в поликонфессиональном обществе: история и современность.– Уфа : Мир печати, 2016. – С. 166.

ishida ayollar ham faoliyat olib borishni boshladi. Ya’ni jamiyat ishida yangi davr boshlandi deyish mumkin⁴⁴.

Roziyani taxtni qo’lga kiritishi jamiyatdagi barcha muommlarni o’z-o’zidan yechilishiga olib kelmas edi. Buni yaxshi anglagan Roziya ijtimoiy- iqtisodiy jabhada islohotlarni amalga oshirishga urindi. Lekin sultonlik tojini boshda tutib turish oson kechmadi, y’ani sultonning boshqaruvi ham kamchilik va qiyinchiliklardan holi emas edi. Chunki taxtni egallagan yosh sultonga davlat amaldorlari ta’sir o’tkazib ko’p vaziyatlarda uni to’g’ri yo’ldan qaytarishga erishishdi. O’rta asrlardagi tarixiy jarayonlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, davlat amaldorlari yoxud zodagonlar yordamisiz davlatni idora qilishning umuman ilojisi yoq edi. Yanada aniqlashtiradigan bo’lsak Roziya hukmronligining boshida ko’plab amaldorlarni jazolashi oqibatida, o’ziga qarshi muxolifatni vujudga keltirgan edi. Bu muxolifatni turk zodagonlari: Malik Alauddin Jani, Izzuddin Muhammad Salari, Malik Sayfuddin Qarluq Kuchi va Malik Izzuddin Kabir Xon Ayazilar tashkil qildilar. Lekin bu muxolifat Roziyani umuman tashvishga solgan emas. Roziyaning haqiqiy dushmani bu Avvad hukmdori Malik Nusrat-ud-din Taysi edi. Taysi Dehli tomon askar tortadi va Gang daryosidan kechib o’tganidan so’ng asirga tushib qoladi⁴⁵. Roziya Taysini o’limga hukm qiladi, ammo bu paytda u kasallikka chalingan edi va Taysi, aynan, mana shu kasallik tufayli tutqunlikda vafot etdi.

Iqtisodiy inqiroz paytlarida jasur Roziya qat’iyat bilan harakat qilib, xalq harakatlarini ayovsiz bostirdi. Yamuna daryosi bo’yida bo’lib o’tgan to’qnashuda zamindorlarning qo’shiniga qarshatqich zarba berdi. Katta yer egalari Roziyaga ko’p marotaba askar tortgan bo’lsalarda, barchasi muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Natijada Malik Izzuddin Kabir Xon Ayazi va Izzuddin Muhammad Salari xoinlik yo’liga o’tib, Roziya bilan yashirinchha til biriktirib o’z sheriklariga qarshi fitna tayyorlay boshladi. Ular Payal daryosi bo’yida Malik Janining boshini olib, Dehliga olib qaytishdi. Malik Kochi va uning ukasi Faxruddin asirlikda vafot etdilar. Roziyaning ashaddiy dushmanlaridan biri hisonlangan Nizam-ul- Mulk Simur qal’asida qahramonlarcha halok bo’ldi va shu tariqa Roziyaga muxolifatda bo’lgan guruh yakson qilindi.

⁴⁴ Ibn Battuta. The Rehla//quoted by Mahdi Husain. – New Delhi. – P.237-238.

⁴⁵ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P. 639-640.

O'zboshimcha mahalliy hukmdorlar davlatga yillik soliq to'lashga majbur bo'ldilar. Roziya siyosatda ro'y berayotgan har qanday o'zgarishlarni nazoratga olib, o'z hukmronligimi ham mustahkamlab bordi. Shu qatori u yuqori toifa e'tiborini ham o'ziga jalg qilishga urindi. Shuning uchun mamlakat hayotining o'g'ir iqtisodiy inqirozi paytida amaldorlariga tayanib, ularning fikrlarini ham inobatga olib ish ko'rishga harakat qildi. Masalan Malik Kabir Ixtiyoruddin Aytekin Badaun provinsiyasi hukmdori etib tayinlandi. Biroz muddat o'tib u Amiri-i-Hojib unvonini ham oldi. Bu esa amaldorlarni turli unvonlar bilan o'zi tomoniga og'dirish degani edi. Shuningdek, Malik Izzuddin Kabir Xon Ayazi Lahor provinsiyasi, Hindu Xon esa Uchch viloyati rahbarlari etib saylandilar⁴⁶. Xo'ja Muhazzabuddin esa bosh vazir Nizam-ul-Mulk o'rnini egalladi va boshqa muhim ahamiyatga ega bo'limgan lavozimlar musulmon bo'limganlarga taqdim etildi⁴⁷. U biror shaxsni ma'lum bir lavozimga tayinlayotganida kuchlar tengligiga rioya qilishga harakat qildi va hokimiyatni bir hovuch mulk egalari bo'lgan alohida shaxslar qo'lida to'planishiga yo'l qo'ymadi. Shuningdek, Roziya turkiylarga mansub bo'limgan insonlarni davlat xizmatiga olishni boshlab berdi. Uning davrigacha esa davlat xizmatiga faqatgina turkiy xalqlardan nomzodlar qabul qilingan xalos. Masalan, sulton kelib chiqishi turkiy urug'dan bo'limgan Jamoliddin Yoqut Abusinonni Amir-i-Akhur (otxona ishlari rahbari) qilib tayinladi. Bu siyosat sultonga turk bo'limgan zamindorlardan o'ziga tayanch guruh shakllantirishga imkon berdi.

Roziya sulton o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun birinchi navbatda Ranthabhor viloyatiga qarshi yurush qilishga majbur bo'ldi⁴⁸. Bu viloyat Sulton Eltutmish davridan beri Hindistondagi notinch viloyat hisoblanar edi. Bu viloyatda tinchlikni o'rnatilishi aynan Roziya nomi bilan bog'liq. U sultonlik qo'shinlari bilan Ranthabhorni qamal qildi va u yerdagi boshboshdoqlik harakatiga barham berdi. Sulton Qutbiddin Hasan Go'ri boshliq ko'p ming kishilik qo'shinni isyonchi Rajputlarga qarshi yubordi. Sultonlik qo'shinlari yurushlar natijasida rajputlar qo'lida saqlanayotgan musulmonlar ozod etildi. Lekin sultonlik qo'shinlari bundan boshqa

⁴⁶ Nizami K. A. Some Aspects of Religion and Politics During the Thirteenth Century. – New Delhi, 1974. – P.136.

⁴⁷ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P. 68.

⁴⁸ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P. 68.

g' alabagalarga erisha olmadilar. Ya'ni Roziyaning yurushlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Vaziyatni izchillik bilan kuzatib turgan Chauhanlar Shimoliy-sharqiy Rajputanani o'z nazoratiga oldi. Rajputlar bilan olib borilgan urushlar Dehli sultonligi uchun juda talofatli bo'ldi va mana shunday jarayonda Roziya diplomatik qobiliyatini namoyish qila oldi va ularni hokimiyatga tobe etdi.

Mana shu qonli muhorabalardan so'ng, u yashash tarzida ham biroz o'zgarishlar yasashga urunib ko'rdi va harbiy liboslardan voz kechdi. Ayni damda u ayollarga xos kuloh (maxsus ayollar libosi) ni kiyib, fil ustida o'tirgancha jamoat oldiga chiqdi va Dehlining boshqa erkak diplomatlari singari mahalliy aholi bilan til topishishga harakat qilib ko'rdi. Roziya bu ishi bilan oddiy xalqni o'zi tomonga og'dira oldi deyish mumkin. Roziyaning qilayotgan tadbirdi ko'plab zamindorlarning qarshiligidagi duchor bo'ldi⁴⁹.

Tarixchilarining ta'kidlashicha, Roziyaning faoliyatidagi eng ahamiyatli urush-Gvaylorga 1238-yil mart oyida qilingan yurush bo'lib, aynan mana shu jangda Juzjani Minhaj ham qatnashgan. Uning yozishicha, bu jang mobaynida Roziya armiyasi tarkibiga ko'blab mahalliy rojalar ham kelib qo'shilgan. Roziyani qudratini oshib ketayotganini ko'rigan Gvaylor aholisi sultonga taslim bo'ladi va ikki o'rtada sulh shartnomasi imzolanadi⁵⁰.

Biz Roziyaning ko'plab yurushlarda qonli toq'nashuvlarsiz vaziyatni o'zi tomoniga hal qilganini ko'ramiz. U Laknauti hukmdori Malik Izzuddin To'g'ril Tughan Xonni urushlarni tichlik yo'li bilan hal qilishga chaqirdi. Unga turli o'ljalar qatori turli unvonlarni taklif qildi. Ammo Malik Izzuddin mamlakatdan qochib ketdi. Roziya esa uning xiyonatiga qarshi hech qanday chora ko'ra olmadi. Roziya mo'g'ullarga qarshi yurushlarni ham amalga oshirdi. Va bu janglar davomida Qoraqushxon boshqarayotgan Mo'ltan shahrini ham egallab, davlat sarhadlarini yanada kengaytirdi. Mana shu yurushlardan so'ng sulton poytaxt Dehli shahriga qaytdi. 1240-yilning aprelida Tabarinda viloyatida Altuniya unga qarshi isyon boshladi. Bu isyon rahbari asli kelib chiqishi qul hisoblanib, Eltutmish davrida sulton chodirlarini qarovchisi lavozimiga saylangan edi. U Roziya davrida Tabarinda (Bhatinda)ga hokim

⁴⁹ Agha Mahdi Husain. *Futuh -us-Salatin*.— New Delhi: Asia Publishing House, 1976. — P. 133.

⁵⁰ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. — New Delhi, 1970. — P. 633-644.

etib tayinlanadi. Lekin u o’z viloyatida mustahkamlanib olganidan so’ng, sultonga qarshi iyon boshlagandi. Dehliga urushlardan charchab ortga qaytgan Roziya o’z qoshinini Altuniya isyonini bostirish uchun yo’naltirishga majbur bo’ladi. Lekin yarim yo’lga yetmaslaridan turk zodagonlari Roziyani hibsga olib, uning eng yaqin kishisi Yoqutni qilichdan o’tkazadilar va Sultonning o’zi esa Dehlidagi qamoqxonaga jo’natiladi. Zamindorlar Tabarinda isyonini qo’llab-quvvatlay boshladilar.

Armiya ortga qaytganidan so’ng siyosiy kuchlarni o’z qo’lida to’plagan katta yer egalari Roziyaning ukasi Bahromshohni sultonlik taxtiga o’tkazadilar. U hokimiyatga kelganidan so’ng Altuniya isyonini qatnashchilarini hammasini avf etib, ularni yuqori davlat lavozimlariga tayinlaydi⁵¹. Siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashgan bir davrda Altuniya Roziya sultonga turmush qurishni taklif qildi. O’z ahvolini yaxshi tushingan sulton taxtni qaytarib olish maqsadida Altuniyaning taklifini qabul qilishiga to’g’ri keldi. Izzuddin Muhammad Salari va Malik Qoraqoshlar ham Altuniya va Roziyani har tomonlama qo’llab-quvvatladilar. Dehlidagi fitnachi amaldorlar sulton Bahromshohni ham taxtdan chetlatib, o’rniga Kabir Ixtiyoruddin Aytekinni hukmdor qilib tayinladilar. U o’z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Sulton Bahromshohning rafiqasiga uylandi va bu orqali o’zining siyosiy ahvolini birmuncha yaxshilab oldi⁵².

Roziya sultonning malik va amirlari ham xiyonat yo’lini tanlab, Ixtiyoruddin Aytekinni oliy hukmdor deb tan olishdi. Tez orada Ixtiyoruddin Aytekin vazirlari Nizam-ul- Mulk va Xo’ja Muhazzabuddin yordamida mamlakatda o’z nazoratini o’rnatdi. Uning sultonni rafiqasiga uylanishi obro’sini tushirib yubordi va endi xalq unga g’azab ko’zi bilan qaray boshladi. Natijada sultonga qarshi mamlakatda katta qo’zg’lon bo’lib o’tdi. Aytekin qo’lga olinib, Altuniyani Roziya sultonga qarshi isyon uyushtirishga undaganligi uchun qatl etildi. Altuniya qo’lida Roziya sulton xavsizdek tuyilgan edi, ammo bunday bo’lmadi. Ular birgalikda hamkorlari bo’lgan Izzuddin Muhammad Salari va Malik Qoraqoshlar bilan ham taxt uchun kurash olib borishga majbur bo’ldilar. Ikki muxolif kuchlarning armiyasi 1240-yil sentabr va oktabr oylarida Dehli yaqinida bir necha bor to’qnash keldi. 14-oktabr kuni Altuniya va Roziya

⁵¹ <https://www.thebetterindia.com/116257/razia-sultan-first-female-ruler-delhi/>

⁵² Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P.462.

armiyasi mag'lubiyatga uchradi. Kaytal shahrida Altuniya va Roziyani muxoliflar qo'lga olib, zamindorlar qo'liga topshiradilar va ular tomonidan qatl etildi⁵³.

Roziya sulton qisqa muddan hukmronlik qilgan bo'lsada, Hindiston ijtimoiy hayotining turli jahbalarida o'zgarishlar ro'y berdi. Bunday o'zgarishlardan biri bu din sohasidagi qattiqqo'llik bilan olib borilgan siyosatdir. U diniy vakillarining har qanday harakatlarini ayovsiz tarzda jazoladi. Shuning uchun ham bu davr "Kiramitha", ya'ni sunniylarning qonxo'rliklari degan nom oladi. Bunday keskin vaziyatda Nuruddin (Nur Turk) mamlakatning turli mintaqalari: Gujarat, Sind, Mo'ltandan kelgan diniy mutaassiblari o'z atrofiga to'plab, sunniylarga qarshi tashviqot olib bora boshladi. Nur Turk Roziyaning taxtga kelishi bilan saroyda mavjud bo'lgan fitnachi guruhlar bilan yashirinchha kelishuvga erishadi va Sultonni taxtdan olib tashlash harakatlari boshladi⁵⁴.

Mamlakatda Kiramithalar harakati avj olganiga qaramay, ular aytarli bir natijaga erisholmadi. Roziya ularning ba'zilarini ayovsiz jazoladi yoki ularning ma'lum qismi bilan kelishuvchilik yo'li bilan muommoni hal qildi.

Roziya uch yarim yil davomida davlatni muvaffaqqiyatli tarzda boshqardi. U fitnachilar bilan kurashishdan tashqari iqto yer egaligini ham tartibga soldi. Yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi turk qabila zodagonlari yengilgan mahalliy hind mulkdorlari mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar. Roziya davrida mamlakat turli bid'at va xurofotlardan holi bo'ldi deyish mumkin. Roziya sulton Eltutmishdan keying yurt chegaralarini imkon qadar sharqqa qadar kengaytirishga harakat qildi.

Shuningdek, Roziya xalqning shikoyatlarini o'zi eshitib, bu muommolar bilan shaxsan shug'ullanishga harakat qildi. Hukmronligining o'talariga kelib, harbiy kiyinib yurush islomiy jihatdan an'analarga o'zaro muvofiq emasligi anglab, malikalarga xos liboslar kiya boshladi. U o'z qobiliyati, yetakchilik xususiyati bilan hammani hayratda qoldira boshladi. O'z davri uchun kuchli armiyaning shakllantirilishi bu mamlakat xavfsizligining muhim shartlaridan ekanligi anglab, qurollarning yangi turini armiyaga jalb qildi. Hattoki janglarda armiyaga o'zi boshchilik qilib, ularni jangga boshlab kirdi. Roziya sulton tartiblashtirilgan

⁵³ Nizami K.A. A Comprehensive History of India. – New Delhi, 1970. – P.242.

⁵⁴ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P. 461.

armiyaning ijobjiy tomonlarini hisobga olib, qo'shindagi erkaklarning harbiy tayyorgarligiga alohida e'tibor qarata boshladi.

Roziya davrida Noibi lashkar deb nomlangan yangi harbiy lavozim joriy etilgan edi, ammo uning o'limidan so'ng bu lavozimning mamlakat miqyosidagi ahamiyati pasayib ketadi. Bu lavozim harbiy qismdagi askarlarning ruhiy, jangovarlik holati bilan bog'liq bo'lган muommolarni hal qilish bilan shug'ullangan. Sulton askarlarning sihat-salomatligi haqida ham qayg'urgan va ularni doim hokimiyatdan mamnun bo'lishlari uchun turli xil ko'ngilochar tadbirlar ham uyushtirib bergen. Dastlab bunday lavozimga Malik Sayfiddin ismlik askar tayinlangan va uning o'limidan so'ng Qutbiddin Hasan Go'ri egalladi. Ularning ikkalasi ham umrlarining so'ngiga qadar sidqidildan xizmat qilishdi⁵⁵.

Hammamizga ma'lumki, bu davrda mo'g'ullar janubiy-g'arbiy tomonga qarab Botuxon boshchiligidagi shiddat bilan siljib borayotgan edi. Ular Hindistonga ham yurushlarni amalga oshira boshladilar, lekin Roziya diplomatiya orqali bu muommoni hal qildi. Mo'g'ullar hujumining oldini olinishi mahalliy zamindorlar orasida Roziyaning obro'sini ko'tarilishiga olib keladi. Juzjani Minhaj-us Sirajning ma'lumotiga asosan, ayni shu davrdan e'tiboran Laknautidan to Debal viloyatigacha bo'lган hududlarda hukmronlik qilayotgan hamma malik va amirlar Roziyaning qudratini tan olib, unga itoatkorliklarini bildiradilar.

Roziya sulton davrida Hindistonda nisbatan siyosiy osoyishtalik o'rnatildi. U turk zodagonlarini jilovlashning asosiy yo'li deb aholini ijtimoiy himoya tizimiga alohida e'tibor qaratdi. Chunki oddiy ommaning qo'llab-quvvatlashi taxtni egallab turishda muhim ahamiyat kasb etar edi. Shuningdek, u mahalliy sudlov tizimini ham isloh qilishga harakat qildi. Qozilar va muftiyalar faoliyatini nazorat ostiga olib, qozilarni har hafta mamlakatda olib borgan sudlov ishlari haqida hisobot berib turishlarini qonun bilan belgilab qo'ydi. Agar ularning faoliyatida biror noo'rin jihat aniqlanadigan bo'lsa, ayovsiz jazolashini e'lon qildi⁵⁶.

⁵⁵ Kumar Brothers .The Government of the Sultanate. – New Delhi, 1972. – P. 148.

⁵⁶ Husain Wahed. Administration of Justice During the Muslim Rule in India .Calcutta University. – Calcutta, 1934. – P.22.

Roziya sulton otasining unga bo'lgan ishonchini oqladi va Eltutmishga qarshi bo'lgan zodagonlarni ham yer bilan yakson qildi. Ulardan biri harbiy vazir hisoblangan Muhammad Junaidi edi. Roziya davrida Junaidining davlat siyosatiga aralashuvi sezilarli darajada qisqardi. Lekin Roziyaning yakka hukmronlikka intilishi samarasiz tugadi. Bunga asosiy sabab zodagonlar mamlakatda yuqori mavqeyga ega edilar⁵⁷.

Sulton mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida pul islohotini amalga oshirdi. Dehli sultonligidagi tangalar asosan oltin,kumush,misdan zarb etilgan. Roziya davridagi tangalarning aksariyati Markaziy osiyoda hukmronlik qilayotgan davlatlarning tangalari namunasida zerb qilingan. Ya'ni Muhammadiy tangalari Dehli tangasi uchun asos bo'ldi. Roziya sulton davrida tangalarning to'rtta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- A) Nusrat.
- B) Roziyaddunyo.
- C) Chavandoz.
- D) Afsonaviy.

Roziya sulton hukmronligining dastlabki davrlarida chiqarilgan tangalarda asosan otasi Shamsiddin Eltutmishning nomi chekilgan edi va bu esa malikaning o'z otasiga hurmati qay darajada baland bo'lganligi isbotlaydi. Lekin bu davrda chiqarilgan Eltutmish va Roziya sulton tangalari bu davlatda Arab xalifaligining ta'siri juda yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Keyinchalik Roziya sulton hukmronligini mustahkmlaganidan so'ng tangalarda o'z nomini ham chektira boshladi. Uning nomi tangalarda ikki xil ko'rinishda uchraydi: Sultan Razat- al- Dunya val- Din bint al-Sulton va Sultan Jalalat- al- Dunyo val - Din⁵⁸.

Dehlida sultonligida tangalar Sulton Eltumish davrida "Sulton al-muazzam" nomi bilan zerb qilingan. Lekin 1237 – 1238-yillarga kelib, Roziya sulton bunga chek qo'yadi. Shu yillardan boshlab tanganing old tomonida faqat Roziyaning o'zini ismini zerb etish boshlandi. Sulton davrida Laknauti va Dehli shaharlari tanga zerb

⁵⁷ Juzjani Minhaj -us Siraj.Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970. – P.460.

⁵⁸ Lane- Poole Stanley. The Coins of the Sultans of Delhi in the British Museum. – London, 1884. – P. 18-19; Moin Danish.Coins of the Delhi Sultans. Maharastra. IIRNS Publication. – 1999. – P. 14.

qilinadigan asosiy shaharlarga aylandi⁵⁹. Aytib o'tganimizdek Raziya Sulton hukmronligining ilk davrida chiqarilgan tangalarda Eltutmish nomi qayd qilinga bo'lib, uning yonida Nusrat degan so'z ham qo'shimcha tarzda ilova qilingan. Bu so'zning ma'nosi yoramchi degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, Roziya taxtni otasining yordamchisi sifatida boshqargan.

Keyinroq chiqarilgan tangalarda esa sultonning nomi "Roziyaddunyo val din" shaklida bitiladi. Sulton bu nomni arablarning Abbosiylar sulolasiga taqlidan qabul qilganligiga oid ma'lumotlar saqlangan. Shuningdek, sulton tangalarda o'zini diniy rahnamo sifatida ham ko'rsatib, Nusrat Amir-ul- mo'minin nomi ostida zarb ishlarini amalga oshirtirgan. Bu nom ichidagi Nusrat so'zi nosir so'zining sinonimi hisoblanib, asosan ayollar uchun ishlatilgan nisbadir. Nusrat Amir-ul- mo'minin nomi ostidagi tangalar kumushdan ishlangan bo'lib, ularning og'irligi 9,7 gr dan 10,5 gr gacha bo'lgan miqdorni tashkil qilgan⁶⁰.

Bundan tashqari yombi ko'rinishidagi tangalar ham zarb ettirilgan bo'lib, Chavandoz yoki Arab afsonasi turi deb ham atalgan. Ba'zi manbalarda misdan ishlangan bu tangalar Devanagari tangalari deb ataladi. Ularning og'irligi o'rtacha 3,5 gr ni tashkil qilgan. Lekin bunday mis tangalarning 2 gr lik ko'rinishlari ham muomalaga chiqarilgan edi. Roziya sulton davrida bu tangalalar iqtisodiyotni olg'a siljishiga xizmat qilganligiga qaramay, uning vorislari davrida o'zining ahamiyati yo'qotadi. Dehli sultonligida Arab xalifaligining ta'siri borligini faqatgina tangalar isbotlab qolmasdan, hukmdor nomiga xutba o'qish ham buni isbotlaydi⁶¹. Ya'ni juma namozi paytida hukmdor nomiga qo'shib, xalifaning nomiga ham duo o'qilgan.

Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to 'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va sulton mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

⁵⁹ Wright Nelson. The Coinage and Metrology of the Sultans of Delhi. – Delhi, 1974. – P. 40.

⁶⁰ Lane- Poole Stanley. The Coins of the Sultans of Delhi in the British Museum. – London, 1884. – P. 18-19; Moin Danish. Coins of the Delhi Sultans. – Maharastra. IIRNS Publication. – 1999. – P. 14.

⁶¹ <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/delhi-sultanate/administration-of-india-under-the-delhi-sultanate-history/6585>

Roziya sulton tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, sultonlikda markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi.

U oltin pul zARB etishni yo‘lga qo‘ygan va uning tarkibiga qiymati past bo‘lgan boshqa ma’danlar aralashtirilmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar sultonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o‘z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

Shu o‘rinda Roziyaning shaxsiy sifatlari ham ahamiyatga molik. U har bir ishga tanqidiy yondoshishni xush ko‘radigan va ehtiyyotkor hukmdor edi. Sulton nafaqat harbiy sohaga balki musiqa va ta’limga ham qiziqib, ilm-fanga homiylik qildi. Musiqa ilmidan yaxshi habardor bo‘lgan Roziya sulton bir nechta musiqa bastalagani tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan. Shuningdek, u Qur’oni Karimni to’liq yod olib, ulamolar bilan suhbatlar uyushtirgan⁶². O’sha paytda ilm-fan rivojlangan shahar Madarsai-Nosiriyaning boshqaruvi Minhajga topshiriladi. Ilmiy muassalar, akademiyalar, maktablar va jamoat kutubxonalari tashkil etilib, u yerda Qur’on kitobi va islom an’analari bo'yida tadqiqotlar olib borilgan. Sulton dinni yaxshi tushunganligi uchun dinni mamlakat bo’ylab yoyilishiga harakat qildi⁶³.

Roziya sultonning hukmronligi ham kamchiliklardan holi bo’lmadi. Birinchi navbatda sulton mamlakatda katta siyosiy nufuzga ega bo‘lgan zamindorlar bilan kelishib, o’zaro hamkorlikda mamlakatni boshqarish o’rniga ularni taqib ostiga oldi. Shuningdek, Roziya hind zodagonlarini kuchaytirish orqali turklarni hokimiyatdan chetraqda tutishga harakat qildi. Natijada turk zodagonlarida Roziya sultonga nafrat hissi paydo va oxir-oqibatdan uni aynan mana shu turkiy zamindorlar taxtdan mahrum qildilar.

Sulton Juzjani Minhaj -us Sirajni Nosiriya shahridagi ilm dargohiga bosh etib tayinladi. Juzjani Minhajning asarlarida keltirilishicha, unga bildirilgan mana shu ishonch uning taqdirida muhim burilish yasagan. U ushbu maorif uyida uzoq yillar davomida faoliyat olib bordi va yosh bolalarga ta’lim berdi.

⁶² Shushtery A.M. A. Outlines of Islamic culture. Bangalore: Bangalore press. – 1938. – P. 771.

⁶³ https://www.brainkart.com/article/Delhi-sultanate----Art--Architecture--Literature-and-Music_1279/

Xulosa qilib aytgada, Roziya sultonbegim XIII asr Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan musulmon hukmdoriga aylandi. Agar u erkak kishi bo'lib dunyoga kelgan bo'lidan bundanda ko'proq muvaffaqiyatga erishgan bo'lardi. Chunki dunyoning ko'plab tarixchilar Roziyaning eng katta kamchiligi uning ayol bo'lib tug'ilganligi deb hisoblashadi. Chunki sultonni ayol bo'lidanligi uchun taxtga chiqqan ilk pallalarida turk zodagonlari keskin tanqid ostiga olib, unga qarshi faoliyat olib bora boshladilar. Roziya taxtga chiqqanda undan tashqari sulton Eltutmishning taxtga davogar bo'lidan 10 dan ortiq og'li bor edi, biroq ularni hech birisi taxtni boshqarish qobiliyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham Roziya taxtni egallahga muvaffaq bo'ldi. Ko'p hollarda mana shu o'g'illar mahalliy turkiy urug' boshliqlari bilan Roziyaga qarshi kurash olib borishdi, afsuski o'z maqsadlariga erisha olishmadi. Roziya sultonning o'limidan so'ng uni hurmat va ehtirom bilan hozirgi Shohjahonobod shahri yaqinidagi Turkman darvozasi yoniga dafn etishadi. Shuningdek, bu hudud aholi orasida Eski Dehli deb ham ataladi. Lekin vaqtlar o'tgandan so'ng sultonning qabri joylashgan maqbara xarobazorga aylangan. Ayrim musulmon hukmdorlar davrida bu yer musulmonlar kelib, besh vaqt namoz o'qiydigan masjidga aylantirilgan.

II BOB. DEHLI SULTONLIGINING BOSHQARUV TIZIMI VA MADANIY HAYOT

2.1. Dehli sultonligida davlat boshqaruvi. Unvon va mansablar

Hindistonda musulmonlar hukmronligi qaror topganidan so'ng, dastavval Qutbiddin Oyboq Hindistonda mavjud bo'lgan boshqaruv tizimini o'zgartirmadi va boshqaruvni hind zodagonlarining o'zlariga topshirib qo'ydi. Ular o'zlariga berilgan hududlarda boshqaruvni to'la amalga oshirib, yig'ilgan soliqlarning ma'lum bir qismini sultonlik xazinasiga yuborib turishlari shart edi. Ya'ni musulmonlar hukmronligining ilk bosqichida bu yerda mavjud bo'lgan eski boshqaruv tizimi ularga davlatni idora etishda anchayin qo'l keldi. Sultonlik hokimiyatining mustahkamlanishi bilan boshqaruv tizimi ham sekin-astalik bilan taraqqiy eta boshladи. Mo'g'ullar va saljuqiylar sultonlik boshqaruv tizimini takomilida muhim ahamiyat kasb etdi.

Turk-afg'on xalqlari tomonidan tashkil etilgan hukumat tizimida podshoh ya'ni sulton eng katta vakolatga ega shaxs hisoblangan. U barcha amallarning boshida turdi. U mutlaq podshoh, harbiy urushlar davrida sardor va diniy hukmdor bo'lib, u o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan huquqqa ega edi. Hindistondagi sultonlikning bu xususiyati asosan musulmon an'analari asosiga qurilgan edi. Hukmdor jamoat tomonidan saylangan va Qur'oni buzganlari esa hukumat tarkibidan chetlatilagan. Taxtga vakolatli meros yo'q bo'lganda, knyazliklar Sultonni Iltutmish kabi, undan keyin Tug'laqga qadar tanlash huquqini qo'lga kiritdi. Qilichlar ham meros masalasini hal qildi. Alauddin Xiljiy, Xizor Xon va Bahlul Lodiylar taxtni o'z kuchlari bilan egallahgan. Sulton barcha oliv harbiy, sud va ma'muriy kuchga ega bo'lib, uning buyrug'i shtatdagi qonun edi⁶⁴.

Dehli sultanatining ma'muriyati o'ziga xos xususiyatlarga ega edi:

Birinchi muhim jihat shuki, boshqaruv islomiy fiqh va qonun-qoidalarga muvofiq ishlaydi.

Ikkinchisi, hukmronligi davrida Islomiy tamoyillarga amal qiladigan hukmdorlar taxtni egallahga haqlidir. Ular rasman xalifa hukmronligini tan oladi. Hech kimni

⁶⁴ <https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/administration-in-delhi-sultanate-1441275639-1>

suveren hukmdor deb hisoblash mumkin emas. Sulton xalifaning vakili hisoblanardi. Dehli sultonlarining ko'pchiligi o'zlarini xalifaning sadoqatli vakili deb hisoblashgan⁶⁵. Xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlagan birinchi hukmdor Alauddin edi.

Uchinchisi, xususiyat shuki, davlat harbiy davlat edi va Sultonning o'zi harbiy kuchlarning oliy bosh qo'mondoni edi. To'rtinchi xususiyat bu- feodal tartiblarning hali ham mavjudligi va uni boshqaruvga ta'sirini mavjudligi edi. Beshinchi xususiyat esa, sultonning barcha hokimiyatni egasi bo'lishidir. Oltinchi jihat Ulamolarning boshqaruv va siyosatga ta'sir o'tkazishga harakat qilishi.

Kuchli jamoatchilik fikri bilan sulton zodagonlar orasida eng yirik mulkdorga aylana borgan. Uni xudoning yerdagi vakili sifatida qaralar edi va u ulamolar (ruhoniylar sinfi) ning tavsiyasiga asosan mamlakatni boshqarar edi. Garchi podshoh Ulamolarning maslahatini qabul qilishga majbur bo'lmasa-da, bu sinf davlatda ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lib, ommani davlatga bo'ysundirishda katta ahamiyatga ega edi. Musulmon hukmdorlarining ko'pchiligi (Alauddin Xiljiy va Muhammad Tug'laqdan tashqari) ularning tavsiyalarini chetlab o'tishga jur'at eta olmadilar.

Hindistondagi sulton xalifaning qonuniy vakili hisoblanardi. Biroq, Hindistonning musulmon shohlari har doim xalifaning hokimiyatini tan olmaydilar. Ular ko'pincha o'z pullarini zarb qilib, Xutbani o'zlarining nomlaridan o'qitib, ularning hukmronligini ham tasdiqlashardi. Jeyms Millsning so'zlariga ko'ra: "Muhammadiy hukmronligi davrida, jamoat bilan davlat o'rtasidagi ittifoqchilik barham topdi. Aytish kerakki, mashinani boshqarmaslikning iloji bo'lmganidek, davlatni idora etilmasa muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin edi va bu ayniqsa sultonning shaxsiga bog'liq edi. Alauddin Xiljiy kabi kuchli hukmdorlar ma'muriyatga katta ta'sir o'tkaza oldi va zodagonlar va Ulamolarni o'zlarining nazorati ostida ushlab turishdi.

Biroq, zaif sultonlar hukmronligi ostida, viloyat hokimlarining o'z mustaqilliklarini e'lon qilib, davlatda o'z ta'sirlarini yanada qaror toptirishga hatkat qildilar. Ulamolar ham mustaqil faoliyat olib borishga harakat qilganlar. Doktor

⁶⁵ <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/delhi-sultanate/administration-of-india-under-the-delhi-sultanate-history/6585>

Qureshi fikricha, merosxo'rlik tamoyilining mavjudligi, sultoni tanlashning nafaqat yaxshi ishlagan reja, balki to'g'ri odamni to'g'ri vaqtida topishning yagona vositasi edi”.

O’rta asrlarda Hindistondagi musulmon davlatining yana bir xususiyati, asosan, ular musulmonlardan iborat harbiy elatlarning yordami bilan bilan davlatni boshqarishgan. Sultonning o’zi manashu harbiy kuchlarning oliy bosh qo’mondoni bo’lgan. Aslida sulton keng imperiyalarni nazorat qila olmadi, feodallarning hokimiyatini cheklash, ichki qo’zg’olonlarni bostirtirishni uddasidan chiqa olmay, tashqi tajovuzlarga duch keldi. Shuning uchun ham mamlakatdagi tartibni bir maromda saqlab turishni istagan sultonlar muntazam tuzish bilan bir qatorda muhtoj bo’lgan davrda feodallardan ko’plab askarlarni jalg qildilar.

Yuqori toifa vakillari, ya’ni zodagonlar mamlakat boshqaruvida katta ta’sirga ega bo’lgan. Aksariyat hollarda zodagonlar armiyani jangga boshlab kirganlar va bu orqali o’zlarining obrolari va ta’sirlarini oshirib borganlar. Ularning mamlakat hayotidagi pozitsiyalari vaqt vaqt bilan o’zgarib turgan. Dehli shahri va uning atrofida joylashib olgan yuqori toifa vakillari ba’zan sultonni hokimiyat tepasiga olib kelishlari yoki uni taxtdan mahrum qilishlari ham mumkin edi. Mana shu oqsuyak toifalar ichida ham o’ziga xos guruhlar mavjud bo’lib, ular asosan turk va tojik zodagonlar hisoblanib, doim o’zaro ziddiyatda edilar. Turk va tojik zodagonlari o’rtasidagi nizo Shamsiddin Eltutmish davrida boshlangan bo’lib, uning vafotidan so’ng juda keskin tus olganligi bilan harakterlanadi. Shamsiddin Eltutmishning o’zi 40 zodagonni o’z ichiga oluvchi chahalgan guruhini shakllantirdi va uning qudratiga tayanib, mamlakatni idora etgandi.

Balban davriga kelib yuqori toifa vakillari sulton nazoratiga o’tdi va boysunmaganlari yer bilan yakson qilindi yoki mamlakat hududidan haydar chiqarib yuborildi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Balbanning o’zi ham chahalgan guruhining vakili hisoblangan. Sulton Xiljiy va Tug’luq davriga kelib, zodagonlar mahalliy aholining quyi qatlami vakillari bilan o’z munosabatlarini sekinlik bilan o’zgartishdi va ular bilan yaxshi muomalada bo’lishga harakat qilishdi. Lodiylar sulolasi davrida aholi qatlamlarining tengligi tog’risidagi qonundan kelib chiqib zodagonlar ham o’z mavqelarini, huddi sultondek mustahkamlab olishdi. Iskandar va

Ibrohim Lodiy toifalar tengligi tog'risidagi qonunni bekor qilib, zodagonlarni o'zlariga bo'ysundirishga harakat qildilar. Lekin bu omil zodagonlar va sulton o'rtasidagi munosabatni teskari bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Musulmon diniy jamoasi vakillari ham davlatning boshqaruvida muhim ahamiyatga ega toifa hisoblanib, ulamolar deb atalar edi. Ular mamlakat miqyosidagi diniy hayotni tartibga solib, aholini sultonga bo'lgan tobeligini oshirishga xizmat qilganlar. Shuningdek, ular yuridik ishlar bilan shug'ullanib, turli vaziyatlarda qozilik vazifasini bajarganlar. Bundan tashqari ulamolar sultonga ham ta'sir o'tkazib, davlatni islom qoidalariga asosan boshqarishni talab etgan. Ammo Sulton Alouddin Xiljiy davlat boshqaruvida ulamolar fikrini umuman hisobga olmadi va "soz-bu qonun" shiori ostida hukm surdi⁶⁶.

Dehli sultonligida boshqaruv uch qismdan iborat bolgan:

- Markaziy boshqaruv tizimi;
- Provinsiyalar boshqaruvi va iqto tartiboti;
- Mahalliy boshqaruv tizimi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek markaziy boshqaruv tizimidagi lavozimlar asosan sulton tomonidan idora qilingan. Sultondan keyingi o'rinda Vazir devoni (Diwan-i-Wizarat) eng yuqori boshqaruv hususiyatiga ega bo'lib, u mamlakatning moliya vazirligi edi. Bu vazirlik o'z faoliyatida to'rtta asosiy vazifani bajargan:

- Sultonga kerakli o'rinnarda maslahat berib, unga ko'maklashish;
- Sultonlikning moliyaviy hayotini tartibga solish va sultonga har kuni hisobot berish;
- Favqulotda vaziyatlarda armiyaga boshchilik qilish;
- Kerakli o'rinnarda armiyaga sarf-xarajatlarni nazorat qilish va hisoblash.

Bu vazirlikni Bosh vazir boshqargan. Adab-ul-Mulkning fikriga ko'ra, vazirning asosiy vazifalari "mamlakatni obodonlashtirish, xazinalarni yig'ish, mansablarni tayinlash, hisob berishni so'rash, karxanalarda tovarni yig'ib olish va otlarning ro'yxatini tuzish edi. Tuyalar, xachirlar va boshqa hayvonlarni yig'ish va to'ldirish, taqvo va shon-shuhratga ergashish, ularga stipendiyalar berish, beva va yetimlarga

⁶⁶ <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/the-central-administration-of-the-delhi-sultanate/2700>

g'amxo'rlik qilish, bilimdon, xalq ishlarini boshqarishda, idoralar tashkil etishda va samaradorligini ta'minlashda; qisqacha davlatning ishini bajarish uchun javobgar". U barcha daromad va xarajatlarni nazorat qilish huquqiga ega edi. Unga Noibi-Vazir, Mumalik (bosh buxgalter) va Mustafo-Mumalik (bosh auditor) bo'lgan ko'plab yordamchilar yordam berdilar. Noibi-Vazir vazir o'rinbosari vazifasini bajargan. Vazirga hisoblarni yozib olgan Mushrif-i Mamalik (buxgalter) yordam berdi. Bundan tashqari uning tarkibida Majmuador lavozmi ham mavjud bo'lib, qarzlar va xazinaning saqlanishiga javob bergen.

Devon-i-Mustakharaj. Bu lavozim egasi mustamlaka hududlardan kelayotgan soliqlar va boshqa tushumlarni hisoblab borgan.

Ariz-i-Mumalik. Uning Devon-i Arz bo'limi bor edi va harbiy bo'linma boshqaruvchisi edi. Uning vazifasi askarlarni ishga olish, ularning ish haqini belgilash, ularni tekshirish va intizomni saqlashni o'z ichiga oladi⁶⁷.

Devon-i Ariz yoki Devon-i Arz. Devon-i arizning vazifasi vazirning yonida edi. Harbiy muassasaning bosh qo'mondoni edi. Uning vazifasi askarlarni jalg qilish va otlarning tayyorgarligiga javobgar edi. Shuningdek, u harbiy kuchlarni tekshirish uchun alohida vakolatga ega edi. Sulton qo'shining bosh qo'mondoni edi. U, ayniqsa, armiya intizomi, ularning jihozlari va jang maydonidagi taktikalarini ko'rib chiqdi. Ayni shu masalaga sulton Alauddin Xiljiy alohida e'tibor berdi. U hukmronlik qilgan davrda harbiy qo'shinlar soni 300 mingni tashkil qildi. Bu armiya turk-afg'on, musulmon hindlar, forslardan tarkib topgan edi.

Devon-i insho. Devon-i Insho uchinchi muhim vazir edi. U qirollik yozishmalariga mas'ul edi. Dabir (yozuvchilar) a'zosi unga yordam berdi. Ular barcha xat yozish uslubi ustalari edi. Bu bo'lim sulton bilan boshqa davlatlarning hukmdorlari o'rtasida, yoki shohlikning muhim vassallari va amaldorlari o'rtasida tuzilgan barcha maxfiylik masalalarini ham o'z ichiga oladi. Ular buyuk qirollik buyrug'larini tayyorlab, sultonga uning sanksiyalarini jo'natishdi. Keyinchalik ular ko'chirildi, ro'yxatga olindi va jo'natildi.

⁶⁷ <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>

Devon-i-risolat yoki tashqi ishlar vaziri. Tashqi ishlar vaziri bo'lgan va diplomatik yozishmalarga mas'ul bo'lgan. Xorijiy hukmdorlarga yuborilgan va qabul qilingan elchilar va elchilar uning nazorati ostida edi. Devon-i risolat muhim xodim bo'lgan, chunki Dehlining barcha sultonlari Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni doimo qo'llab-quvvatlashgan, shuning uchun u mamlakatda juda katta nufuzga ega edi⁶⁸.

Sadar-us-Sadar. U diniy ishlar vaziri edi. Uning asosiy vazifasi Islomni targ'ib qilish va musulmonlarning imtiyozlarini himoya qilish edi. Zakot mablag'larini nazorat qildilar. Shuningdek, u davlat tomonidan uyushtirilgan xayriya taqsimotiga javobgar edi. Musulmon olimlari unga ham unga itoat etishgan⁶⁹.

Barid-i-Mumalik. U sultonlik miqyosidagi batcha razvedka boshqarmalari boshlig'i edi. U sultonnig siyosatiga aholining munosabatini o'rgan va ularni topib jazolash imkoniyatiga ega edi.

Amir-i-Hijab. U shohona marosimlar ustasi va tashkilotchisi edi. Amir-i-hijobning barcha takliflari aksariyat hollarda sultonga taqdim etilgan va qabul qilingan⁷⁰.

Vakil-i-Dad. U qirol oilasining boshqaruvchisi edi. Shuningdek bu lavozim egasi saroydagi barcha ishlarga javobgar hisoblangan.

Amir-i Shikar. U podshohning ov qilish bazmlarini tashkil qilgan.

Sarjandar. U Shoh xonadonining yana bir muhim vakili hisoblanib, sultonning soqchilariga qaragan. Umuman olganda, bu vazir yoki vazirlik juda katta ishonchga sazovor bo'ldi.

Qozi-ul-Quzat. Muftiylarning yordami bilan adliya boshqarmasini idora qilgan. U o'z nomidan adolatni amalga oshirdi va G'oziylarni past darajadagi lavozimga tayinladi. U quyi sudning fuqarolik, shuningdek jinoyat ishlari bo'yicha qarorlari ustidan shikoyatlarni eshitdi. U shuningdek, davlatning diniy ishlarini ko'rib chiqdi. Unga topshirilgan boshqa vazifalar madrasani kuzatib turish, olimlar va boshqa muhtoj

⁶⁸ <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>

⁶⁹ Синха Н. К., Банерджи А.Ч. История Индии –М.: “Иностранной литературы”, 1954. – С.204.

⁷⁰ <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>

kishilarning ehtiyojlarini qondirish, sadaqa tarqatish va hokazolarni o'z ichiga oladi. U ham suddan boshqa vazifalarni bajarayotganda Sadar-us-Sadur deb atalgan⁷¹.

Dehli sultonligidagi hokimiyat diniy tartiblarga asoslanganligi uchun Sadr lavozimini o'rni juda katta ahamiyatga ega edi. Hind tarixchisi Qureshining ma'lumotlariga qaraganda, sadr mansabidagi (wazir-altafwiz) shaxs mamlakatda cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, hukmdor bilan har qanday masalani muhokama qila olish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shuningdek, sadr mamlakatda diniy tartiblarga rioya etmagan shaxsni jazolash imkoniyatiga ega edi⁷².

Sultonlikdagi boshqaruv muqaddas Qur'on, hadis va shariat qoidalariga asoslangan. Ammo tarixchi Muhammad Habibning ma'lumotlariga qaraganda sultonlar haqiqiy o'zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblashsa-da, bu narsa boshqaruvda umuman namoyon bo'lindi. Sultanlar diniy hayotdan ko'ra mol-dunyonи afzal bildilar⁷³. Lekin hamma sultonlar ham boshqaruvda ko'rko'rona dinni tayanchlariga aylantirmay, balki o'zları ham haqiqiy musulmon bo'lganlar. Masjidga tashrif buyurib, oddiy aholi singari jamoat namozlarida qatnashgan.

Boshqaruv sohasi hind jamiyatining barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Sultanlar agrar hayotni ham tartibga solish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirgan. Natijada qishloq xo'jaligi ham tiklanadi va xalq hayoti birmuncha izga solinadi. Yer egaligining uch xil shakli qaror topdi. Ularning asosiysi Iqto yer egaligi shakli hisoblanadi⁷⁴. Bu tartib musulmon olamida IX asr oxiri – X asr boshlarida qaror topgan va harbiylar va amaldorlarning davlat oldidagi xizmatlari evaziga taqdim etilgan. Iqto sifatida sultonlar zodagonlar va armiya sarkadalariga ma'lum bir hududni boshqarish va u yerdagi mahalliy aholidan soliqlarni yig'ishtirib olish huquqini bergen⁷⁵. Iqto mulkini qo'lga kiritgan shaxs Iqtador yoki Muqto deb atalgan. Shuningdek, xolisa yer egaligi shaklining yana bir ko'rinishi bo'lib, bunday yerlar davlatga qarashli yer edi va

⁷¹Chadel L. S. Early Medieval State, Commonwealth Publishers. – New Delhi, 1989. – P. 39.

⁷²Qureshi I. Y. Administration of the Sultanate. – Lahore: Kashmiri Bazaar, 1944. – P.175-176.

⁷³ Mohd Habib, Introduction to the Fatwa-i-Jahandari, Aligarh, Vol. III, 1958, p.6.

⁷⁴ <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>

⁷⁵ <https://erenow.net/exams/indian-history/17.php>

yer egaligining bu shakli markaziy hokimiyat Vazirlik (Wazarat) tomonidan nazorat qilingan⁷⁶. Shu tariqa mahalliy boshqaruv ham sekin-asta shakllantirila boshlandi.

Muhammad Tug'luq davriga kelganda provinsiyalar soni 23 taga yetdi: 1) Delhi. 2) Devagiri. 3) Mo'lton. 4) Ko'xram. 5) Samana. 6) Sevan. 7) Uch. 8) Xansi. 9) Sirsuti. 10) Mabar. 11) Telang. 12) Gujarat. 13) Badaun. 14) Aud. 15) Kanaudja. 16) Laknauti. 17) Bihar. 18) Penalti. 19) Malva. 20) Lahor. 21) Kalanor. 22) Dhajad. 23) Dorasamudra⁷⁷.

Qishloqda hind aristokratiyasining hukmronligi qaror topib borib, ular Muqaddam, Chaudhuri va Khutlar deb atalgan. Musulmon hukmdorlar hind xalqining yer egaligi shaklini o'zgartirishsiz qoldirishdi va ular o'zlarining yerlariga egalik qilishni davom ettirishdi. Adolat-boshqaruvning asosiy tayanchiga aylandi⁷⁸.

Sultonlik davrida Hindistondagi boshqaruv tizimi Forsiy boshqaruv tizimi asosiga qurilgan bo'lsa-da, boshqaruv ko'p tarmoqli politsiya tizimiga tayanib ish olib borgan. XIII – XIV asrlarda musulmonlarning hukmronligi mustahkamlanishda davom etdi. Sultonlarning harbiy yurushlari davomida bosib olingan hudular mamlakat hududiga qo'shib olindi yoki avtonom viloyat sifatida markaziy hokimiyatga qo'shin bilan soliqlarni yetkazish ishini o'z zimmalariga oldilar. Shunga qaramay bu hududlarda bir necha xil boshqaruv mexanizmlari qaror topa bordi. Mana shu provinsiyalarda hokimiyat asosan harbiylar qo'lida bo'lib ular o'zlariga berilgan hudularda soliqlarni yig'ish, boshqaruvni tashkil qilish, qonunlar ijrosiga mas'ul shaxs hisoblangan. Bundan tashqari provinsiyani boshqarayotgan shaxs sultonning maxsus noibi sifatida o'ziga belgilangan hududda bo'lib o'tishi mumkin bo'lgan har qanday isyonga moyil odamlarni topib, ularni yoq qilishi kerak edi⁷⁹.

Butun XIV asr davomida sultonlik mustamlakalar "Shiq" larga bo'lib chiqildi. Ularni shiqdor boshqargan. Afg'onlarga mansub lo'diyilar sulolasi davriga kelib bu lavozim Sarkorlarga aylangan. Faujdor deb nomlanga mahalliy ofitser ham bo'lib, bu

⁷⁶ Khaldun A. L. Muqqadamaa. U.P. 1961. Hindi translation. – P. 432.

⁷⁷ Синха Н. К., Банерджи А. Ч. История Индии. – М.: "Иностранной литературы", 1954. – С. 204.

⁷⁸ Muhammad Qamaruddin. Society and Culture in early medieval India. Adam Publishers & Distributors. – New Delhi, 1985. – P.62.

⁷⁹ <https://erenow.net/exams/indian-history/17.php>

lavozim egasining vazifasi Sarkorlar bilan bir xil bo'lgan. Faujdor provinsiyalarning tartib intizomidan tashqari harbiy hokimiyatni ham amalga oshirgan va mahalliy kichik boshqaruv apparatlarini o'zaro hamkorlikda ishlashini ta'minlagan. Qutvol lavozimini egallagan shaxs Faujdordan keying muhim davlat lavozimi hisoblangan. Sohib-i-devon provinsiyalarning moliyaviy masalalari bilan shug'ullangan.

Dehli sultonligida fors tili boshqaruv tili sifatida e'tirof etildi. Boshqaruv sohasida ishlayotgan musulmonlar va hindlar bu tilni o'rgandilar va ikki xalqni madaniyati ham sekin-asta yaqinlasha boshladi. Turklarning boshqaruv tizimi kastavarna tizimiga katta zarba berdi va Hinduizmning alomatlari jamiyatdan chiqib keta boshladi.

Xulosa o'rnida shuni tan olish kerakki, Hindiston yarim orolini XII – XIII asrlarda musulmonlar tomonidan zabit etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bir necha yillardan beri davom etib kelayotgan kuchli tabaqaviy tizim barham topa bordi. Chunki islam dini aholini hech qaysi jihatdan tabaqalarga ajratmaydi, balki u insonlar orasida tenglikni targ'ib qiladi. Shuning uchun ham islam dini va shariat sekinlik bilan bo'lsada hindlar boshqaruv apparatining muhim bo'g'iniga aylanib bordi.

2.2. Dehli sultonligi davrida madaniy hayot

O'rta asrlar davri Hindistonda buyuk madaniy o'zgarishlar sodir bo'lganligi bilan katta ahamiyatga ega. Chunki, bu davrda madaniy rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi. Turk va mo'g'ul xalqlari bu mamlakatlarda falsafa va g'oyalar, til va adabiyot, me'morchilik uslublari yaratishga, qurilish materiallaridan foydalanishga beqiyos ta'sir ko'rsatdilar. Hindiston allaqachon barcha sohalarda juda boy madaniy an'anaga ega bo'lishiga qaramay, mamlakatda hukmron sulola jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini o'zgartirdi yoki ma'lum o'zgarishlar bilan ularni o'ziga mos tarzda talqin qildi:

- tasavvuf va bahti kabi yangi diniy harakatlari paydo bo'ldi⁸⁰;
- sikhizm davlatda yangi din sifatida ko'tarila boshlandi;
- urdu va fors tili hamda adabiyoti taraqqiyotga erishdi⁸¹;

⁸⁰ <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/sufi-and-bhakti-movement-in-india/3052>

- turli xil hind tillarida adabiyotning yangi ko'rinishi shakllandi;
- hududiy o'zgarishlarga ega bo'lgan sultanat va mug'ullarning me'morchiligi paydo bo'ldi;
- musiqaning yangi shakllari vujudga keldi⁸².

Yuqorida qayd etilganidek, musulmonlarning Hindiston yarimoroliga hujum qilishi, avvalo, diniy hayotga ta'sir o'kazmasdan qolmadi. Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, xalqlarning ma'naviyati va ma'rifatiga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf - so'fiylik ta'limoti paydo bo'ldi. So'fizm (tasavvuf) aslida komil inson va inson kamoloti to'g'risidagi ta'limot desa bo'ladi. Komil inson bo'lish uchun esa avvalo jism va nafs ehtiyojini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish insonni nafsga qul kilib qo'yadi. So'fiylik yo'lini tutgan kishi nafsni rad etadi. Nafs barcha xudbinlik va razolat, falokat va ma'naviy halokatning sababchisi. Voiz Koshifiy "Futuvatnomai sultoniya" asarida: "...tasavvuf tariqat maqolalaridan biridir", deydi. U "so'fiy" qadimiy bo'lib, Odam alayhissalom o'g'llari Shish alayhissalom davrida paydo bo'lganligini aytadi⁸³. Bu ta'limot hind xalqini turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunki tasavvuf inson ma'naviy hayotini bir maromga solishda juda katta ta'sir kuchiga ega edi. Aslida Hindistondagi so'fiylik harakati XI asrda boshlandi va aholi orasida Chishtitiya, Suhravardiya, Qodiriya va Naqshbandiya silsilalari keng yoyildi. Dehli sultonligi davrida Chishti va Suhravardi silsilalari mashhur edi. Sultanlik davrining oxirida ular sharqiy mintaqalarga (Bihar va Bengal) tarqaldi.

Ma'lumotlarga qaraganda, hind xalqi orasida bu ta'limotga e'tiqod qiluvchilar hali ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

O'rta asrlarda sufizm ta'limoti Hindiston yarimorolida islom dinini keng yoyilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Mahalliy aholini turli ziyoratgochlarga borishini ko'paytirdi. Vahdat ul-vujud kabi diniy tushunchaning mohiyati aholi ongiga sekin asta singiy boshladи. Hindistonda sufizm quyidagi hususiyatlarga ega edi:

- so'fizm turli xil silsilardan iborat edi;
- silsilalar diniy bilimlarga ega mashhur so'fi yoki pirlar tomonidan boshqarildi;

⁸¹ <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/medieval-age/origin-of-urdu-language-in-india/6222>

⁸² Noor Achmad,Nanang Nurcholis. States and local legal cultures in medieval islam// Journal of Islamic Studies. Volume 54. – New Delhi, 2016. – P. 36.

⁸³ Shamsutdinov R.,Karimov Sh. Vatan tarixi. – T.: Sharq, 2010. – B. 265.

- so'fiylar shogirdlari bilan birga xonaqohlarda istiqomat qilishgan;
- madrasalardan farqlangan holda xonaqohlarda diniy bilimlar juda mukammal tarzda o'rgatilgan;
- xonaqohlarda so'fiylar diniy bilimdan tashqari turli xil musiqiy yig'inlar ham tashkil qilingan. Bunday musiqiy yig'inlar "Quvvali"deb nomlangan;
- so'fiylarning aksariyati mo'jizalar ro'y berishiga chin dildan ishonishgan va o'zлari ham o'quvchilarga ma'lum darajadagi mo'jizalarni namoyish qilishga harakat qilishgan.

Hindistonda keng yoyilgan Chishti silsilasiga Muiniddin Chishti tomonidan asos solingan. Muiniddin Muhammad Go'rining harbiy yurushlarida qatnashib keyin esa bu yerda yashab qolgan edi. XIII asrda bu silsila Dekan viloyatida ham paydo bo'lган edi. Silsilani Dekan viloyatida tarqalishi Burhonuddin G'arib nomi bilan bog'liq edi⁸⁴.

Hindlar orasida taqalgan yana bir tariqat bu Suhravardi tariqati hisoblanadi. Bu tariqat Bag'dodda paydo bo'lган bo'lsada, Hindistonda keng yoyildi. Bu tariqatning hindlar orasida keng yoyilishiga Bahouddin Zakariya katta hissa qo'shdi. Bu tariqatni boshqa tariqatlardan farqi sulton tomonidan qo'llab quvvatlangani bo'ldi. Chunonchi, bu tariqat vakillari sultondan doim yordam hamda in'omlar olib turgan.

Diniy bilimlar Hindiston yatim orolida keng yoyilishida Naqshbandiya tariqati ham muhim ahamiyat kasb etdi. Unga Bahouddin Naqshband asos soladi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan. Xoja Bahouddin "Hayotnama" va "Dalil al-oshiqin" nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Dil ba yor-u dast ba kor" ("Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l mehnat bilan band

⁸⁴

https://www.researchgate.net/publication/28348968_Chishtia_silsilah_and_the_Delhi_Sultanate_a_study_of_their_relationship_during_13th_and_14th_centuries

bo‘lsin”) degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ‘ib etadi⁸⁵.

Xoja Bahouddin o‘zining maslakdoshi Shayx Ahmad bilan Dehli shahri yaqiniga joylashib, o‘z ta’limotlarini yoyadilar. Bu tariqat vakillar boshqa silsila vakillarining ba’zi hatti-harakatlarini qoralashadi. Masalan diniy jamoa vakillarining musiqiy yig’inlarini tashkil qilishlarini maqsadga muvofiq emasligini ta’kidlashadi.

Hinduizmdagi Bhakti harakati o‘rta asrlar Hindistonidagi eng muhim xususiyatlardan biri edi. Bu harakat ko‘p asrlar mobaynida samarali rivojlandi va zamonaviy hinduizmga chuqur ta’sir qildi. Turli olimlar bu harakatning manbalari haqida turli xil fikr bildirdilar. Veber va Grierson singari taniqli Yevropa olimlari Bhakti najotga erishish vositasi sifatida Hindistondagi nasroniylikdan kelib chiqqan yakkaxudolik asoslanuvchi diniy ta’limot edi deb ta’kidlaydilar⁸⁶.

Turk-afg’on xalqlari istilosidan so’ng hinduizmga islom to‘g’ridan-to‘g’ri yoki bilvosita ta’sir o’tkazdi va bu O’rta asrlar davridagi Bhakti harakatiga olib keldi. Bu harakat asosan umuminsoniy birodarlik va islomning insonparvarlik tamoyillari asosida ilhomlangan holda paydo bo‘lgan edi. Lekin ko’plab olimlarning ta’kidlashicha Bhakti harakati hinduizmning o‘zini ichidagi harakat bo’lishi ham mumkin. Hinduizmga ko’ra, najotga erishishning uchta yo’li mavjud:

- Gyan (ma’lumot);
- Karma (vazifa);
- Bhakti (sadoqat).

O’rta asrlarda Hindu avliyolari Bhaktiga najotga erishish vositasi sifatida qarashgan. Hindlar qadim zamonlardan Bhakti falsafasi asosida hayot kechirishgan. Aksariyat hind tarixchilarining fikrlariga tayanadigan bo’lsak, Bhakti harakatini Hinduizmning ichida butunlay yangi bir harakat bo‘lgan deb hisoblashimiz noto‘g’ri bo'lardi⁸⁷.

O’rta asrlarda musulmonlar hind madaniyatining hamma tarmoqlarini yuksak taraqqiyotiga erishuviga katta rol o‘ynadi. Ya’ni, yangi tili va adabiyoti bilan tanishuv

⁸⁵ Muhammadjonov A. O’zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2017. –B.105.

⁸⁶ Бонгард К. А., Левин Г. Г. История Индии. – М., 1969. – С.138.

⁸⁷ <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/sufi-and-bhakti-movement-in-india/3052>

hind xalqi uchun foydadan holi bo’lmadi. Dehli sultonligi davrida azaldan bu yarimorolda mavjud bo’lgan sanskrit tili inqirozga uchradi va barcha adabiyotlar fors tiliga tarjima qilina boshlandi. Bundan tashqari sharq adabiyotiga xos bo’lgan jihatlar ham sekin-asta o’zlasha boshladi. Ayni shu davrdan boshlab badiiy asarlarni nazmda yozish (Kavya) urf ko’rinishiga kirdi. Turk va afg’onlar hukmronligining ilk davrida Sanskrit tili markaziy va janubiy Hindiston hududlarida birmuncha taraqqiyotga erishganiga qaramasdan keyinchalik o’zining ahamiyatini ham yo’qotib bordi⁸⁸.

Sanskrit tili (qadimgi hindcha - mukammal, sayqallangan) – hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi qadimgi hind tillaridan biri. Qadimgi hind lahjalari asosida shakllangan va mil. av. I asrda shimoliy Hindistonda tarqalgan. Sanskritning bir necha turi bor: epik sanskrit (“Mahabharata” va “Ramayana” tili), klassik sanskrit (qat’iy me’yorga tushirilgan til, mil. avv. IV asrda yaratilgan Panini grammatikasida o’z ifodasini topgan), budda (yoki gibrid) sanskrit (budda dini bilan bog’liq adabiyot tili), jayn sanskrit (jayn diniga oid adabiyot tili), veda tili yoki veda sanskrit (Vedalar).

Sanskritda 7 ta kelishik, 3 ta jins va 3 ta grammatik son kategoriyalari mavjud. Fe’lda zamon va mayl tizimi nihoyatda rivojlangan. Nutqda so‘z va morfemalarning qo’shilishi qoidalari (sandhi) turli tuman. Qo’shma so‘zlar keng qo’llanadi. Ba’zi hollarda bitta qo’shma so‘z butun bir gapga teng keladi. Sanskritda juda ko‘p diniy, falsafiy, ilmiy asarlar yaratilgan, ayniqsa, badiiy adabiyot keng rivojlangan. Sanskrit Hindistonda gumanitar fanlar va ibodat tilidir. Tor doirada olim brahmanlar sanskritdan so‘zlashuv tili sifatida foydalanadilar. Sanskrit va sanskrit tilida yaratilgan madaniy meros qo’shni mintaqalar (Janubiy Sharqiy va Markaziy Osiyo)ga, XVIII asr oxirlaridan boshlab esa Yevropa va Amerikaga ham ta’sir o’tkazgan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning boshlanishi sanskritning kashf etilishi va o’rganilishi bilan bog’liq. Sanskritdagi matnlarni yozuvda ifodalash uchun asli brahmi yozuvidan kelib chiqqan bir qator alifbolardan (kharo’shthi, gupta, nagari, kushon yozuvi va boshqalar) foydalanilgan.

Shuningdek, bu davr adabiyotida yangi bir yo’nalish paydo bo’lgan bo’lib, u o’zida nazm va nasr elementlarini o’zida aks ettirgan edi. Nasr va nazm elementlarini

⁸⁸ <https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/medieval-period-persian-influence-1344325409-1>

o’zida aks ettirgan bu uslub “Champu” deb ataldi. Bu davr Sanskrit tilida yaratilgan asarlar ichida “Prithvirajavijaya” va “Hammirmahakavya”ni misol qilib keltirish mumkin. Bu ikkala asar ham Rajputlar hukmdorining topshirig’i bilan yozilgan bo’lib, Rajputlar oilalarining hayotini to’liq o’zida namoyon qiladi. Bu davr haqida ko’plab ma’lumotlarni bizga taqdim etuvchi bir qancha tarixiy poemalar (muallifi ma’lum bo’lgan dostonlar) mavjud bo’lib, ularni orasida “Rajavinoda” asari adabiyotga oid asar-doston hisoblanadi. Bu asar Gujarat hukmdori Sultan Mahmud Begarhaning biografiyasи hisoblanib, Udayaraja tomonidan yozilgan. Yana bir muhim asar Kalhanning “Rajtarangini” bo’lib bu asar XII asrda Sanskrit tilida yozilgan shoh asar hisoblanadi. U asar Kashmir hukmdorlarining shajarasi va tarixi, shuningdek, ularning olib borgan istilochilik yurushlari haqida mukammal ma’lumot beradi. Bu asarning ikkinchi qismi Jonaraja tomonidan yozib tugallangan bo’lib, Kashmir hukmdorlarining Jayasimhadan to Sultan Zainul Abidingacha bo’lgan hukmdorlar tarixiga bag’ishlangan. Asarning uchinchi qismi Srivara tomonidan yozilgan bo’lib , 1486-yilgacha bo’lgan Sultonlikning diniy hayotini bizgan tanishtiradi.

XV asrga kelib Hindiston yarimorolida Sanskrit tili yana qaytadan rivojiana boshladidi. Vijayanagar, Nayakas hukmdorlari bu tilni rivojlantirishga alohida e’tibor qarata boshladilar. Sanskrit tilining turli janrlari: Mahakavyas, Slesh Kavyas, Champu Kavyas, Natakas va tarixiy Kavyas rivojlandi. O’sha davr adabiyotida Govinda Dikshita (uning eng mashhur asari “Sahitya Sudha va Sangitsudhanidhi”); Appaya Dikshita (saroy adabiyoti namoyondasi); Nilanatha Dikshit (saroyda harbiy vazir lavozimida ishlagan); Chakrakavilar o’zlarining muqim o’rinlariga ega bo’ldilar.

Shuningdek, asli kelib chiqishi Markaziy Osiyolik bo’lgan, o’rta asrlar adabiyotining chirog’laridan biri Amir Xusrav Dehlaviy ham Dehli sultonligi davrida yashab, ijod etgan. Yamuniddin Abulhasan Amir Xusrav ibn Amir Sayfuddin Mahmud Dehlaviy 1253-yilda Hindistonning Patyoli degan shaharchasida dunyoga keladi. Uning otasi asli shahrisabzlik bo’lib, avlodi turkiy elatlarning lochin urug’idan bo’lgan. Ammo u mo‘g’ullar hujuming dastlabki yillaridayoq tarki vatan etib, Dehli hukmroni Shamsiddin Eltutmish saroyiga xizmatga kiradi va 1261-yilda mo‘g’ullarga qarshi

jangda halok bo'ladi⁸⁹. Xusrav Dehlaviy bobosi Imodulmulk qo'lida tarbiyalandi, Qozi Sa'duddin Muhammad ta'limini oldi. 20 yoshida Xusrav iste'dodli shoir, qomusiy bilim sohibi - olim, sozanda va bastakor bo'lib yetishdi. U umri davomida 7 hukmdorning dargohida xizmat qilib, umrining oxirgi 30 yilini Dehlida o'tkazadi. Ulug' shoir 1325-yili Dehlida vafot etgan⁹⁰. Xusrav Dehlaviyning she'rlari 5 ta devonga jamlangan bo'lib, u 400000 dan ortiq bayt ijod qilgan. Abdurahmon Jomiyning ta'kidlashicha, Xusrav Dehlaviy 99 ta kitob muallifidir. Dehlaviy Nizomiy "Xamsa" siga hammadan yaxshiroq javob aytgan shoirdir.

Xusrav Dehlaviy o'z faoliyati davomida quyidagi asarlarni yozib qoldirgan; "Xamsa" (1299 – 1301, uning tarkibida quyidagi 5 doston mavjud: 1. "Matla' ul-anvar" ("Nurlarning boshlanmasi"), 2. "Shirin va Xusrav", 3. "Majnun va Layli", 4. "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat", Ogahiy tarjima qilgan).

Xusrav Dehlaviy "Hasht behisht" dostonining Nizomiy "Haft paykar" idan farqlari shundaki, unda kanizakning nomi Dilorom deb o'zgartirilgan, yetti hikoya hind eposidan olingan), 5. "Oyinayi Iskandariy" ("Iskandar oynasi"), "Tuhfat us-sig'ar" ("Yoshlik tuhfasi"), "Vasat ul-hayot" ("Hayot o'rtasi"), "G'urrat ul-kamol" ("Kamolot ibtidosi"), "Baqiyai naqiya" ("Saralarning sarasi"), "Nihoyat ul-kamol» ("Kamolot cho'qqisi"), "Qiron us-sa'oayn" (Ikki saodatli sayyoraning qo'shilishi), "Miftoh ul-futuh" ("G'alabalar kaliti"), "Xazoyin ul-futuh" ("G'alabalar xazinalari"), "Duvalroniy va Xizrxon", "Nuh sipehr" ("To'qqiz qavat osmon"), "Tug'luqnama", "Tarixi Dehli", "E'jozi Xusraviy" ("Xusrav mo'jizasi") va boshqalar⁹¹.

Qullik tizimini ham hind madaniyatiga bo'lgan ta'siri juda kuchli edi. Bu tizim musulmonlar va hindlar orasida keng tarqalgan va qullar ochiq bozorda sotilgan va sotib olingan. Mulkleri va hayotlari xo'jayinlarining mulki bo'lsa-da, qullarga doimo yaxshi muomalaqilishgan. Musulmonlarning qullari hindlarning qullariga nisbatan yaxshiroq edi. Sultonlar va zodagonlar ko'p sonli qullarni o'qitib, ta'lim berib, ularga ta'lim va imkoniyatlarini oshirish uchun imkoniyat berib, ularning ko'pchiligi davlatda yuksak lavozimlarga ko'tarildi.

⁸⁹ https://www.brainkart.com/article/Delhi-sultanate----Art--Architecture--Literature-and-Music_1279/

⁹⁰ <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/amir-xusrav-dehlaviy-ruboiylar.html>

⁹¹ http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=1016&Itemid=210

XIV asrda Amir Temurning Dehlini bosib olishi oqibatida Dehli aholisi turli joylarga tarqalib, Temuriylar imperiyasi hududlariga borib joylasha boshladı. Natijada ular Dehlining madaniyatini o'zlari borib joylashgan yerlarga tarqalishiga beqiyos hissalarini qo'shdilar. Bahlul Lodiy 1451-yilda hokimiyatga kelganida, vaziyat yaxshilandi va madaniy taraqqiyot va iqtisodiy tiklanishning yangi davri boshlandi.

Hind madaniyatiga ko'ra ayollarga bo'lgan munosabat ham o'zgacha bo'lgan. Ular o'z oilasida hurmat qozondi, diniy marosimlarda qatnashdi, o'qishdi va ko'plari ilm-salohiyati jihatdan mashhur bo'lishdi. Biroq, umuman olganda, ularning mavqeい jamiyatda unchalik ham muhim ahamiyatga ega emas edi. Odatda, jamiyatda monogamiya hukmron bo'lib, lekin boylar orasida erkak bir necha xotinlarni o'z nikohida ushlab turishi mumkin edi. Tul ayollar yana qaytadan turmushga chiqa olmasdilar. Musulmonlar har doim hindu ayollarni ta'qib qilish yoki hibsga olishdi, bu esa nikohlar va purda tizimiga olib keldi. Bundan tashqari, ularning ta'lif va jamiyatdagi harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ayollarga faqatgina boylar tomonidan tashkil qilingan uy mакtablarda ta'lif berilishi mumkin edi. Uzoq yillar oilada qiz farzandning tug'ilishi yomonlik deb hisoblandi va bu ayol-chaqaloqlarning kamayib ketishiga olib keldi. Biroq, quyi kastlar bu ijtimoiy zulmlarning ko'pchiligidan ozod bo'ldilar. Ularda purdaning bu tizimi yo'q edi va ularning ayollarini ajralish va qayta turmushga chiqa olar edilar. ularning orasida hatto bevalarni ham nikohga kirishiga ruxsat berilgan⁹².

Devadasi tizimi Hindular orasida keng tarqalgan yana bir ijtimoiy yovuzlik edi. Turmushga chiqmagan qizlar ibodatxonalar (ma'bad) da xudolarning xizmatlariga taklif qilinib, xudolarning xizmatkorlari sifatida o'z hayotlarini o'tkazdilar. Bu ularning hayoti uchun jiddiy adolatsizlik emas, balki ma'baddagi buzuqlikka olib keldi⁹³.

Hindlar musulmonlar tomonidan qilingan o'zgarishlarni qabul qilishga kirishishdi. Ularning kiyim-kechaklari, ovqatlanish odatlari, ijtimoiy odat va ayrim urf-odatlaridagi o'zgarishlar hindlar turmushiga ham kira boshladı.

Musulmon ayollar ham jamiyatda hurmatga sazovor maqomga ega emas edilar. Musulmonlar poligamiya orasida keng tarqalgan edi. Har bir musulmon o'z

⁹² https://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/12965/13/13_chapter%206.pdf

⁹³ https://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/219356/9/09_chapter%203.pdf

nikohida kamida to'rtta xotinni ushlab turish huquqiga ega edi, ularning orasidagi boylarning yuz yoki minglab xotinlari yoki nullari mayjud edi. Purda tizimi musulmon ayollar orasida qat'iy kuzatildi. Bu ijtimoiy odatlar tufayli ayollar ta'lidan mahrum bo'lganlar. Biroq, ularni hindu ayollar bilan taqqoslaganda hayotlari yaxshiroq edi. Chunki ularni erlarini taloq qilishlari va natijada ayollar qaytadan turmush qurishlari va ota-onalarining mol-mulkidagi ulushini talab qilishlari mumkin edi. Shunday qilib, Sultonlik davrida Hindistonda ayollarning mavqeyi erkaklarni pozitsiyasidan ancha past bo'lganligi va ko'plab ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Hammamizga shu narsa ma'lumki, musiqa hind xalqi hayotining ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Lekin Islom dini musiqani taqiqlaydi, shunga qaramay Balban, Jaloliddin Xiljiy, Alaud-Din Xiljiy va Muhammad Tug'liq kabi boshqa sultonlar o'z saroylarida musiqa va musiqachilarga homiylik qilishdi. Tarixchi Siddiqiyning ma'lumotlariga qaraganda Dehli sultonlaridan Iskandar Lodiyning mumtoz musiqaga qiziqishi judayam yuqori bo'lib, uning saroyda ko'plab musiqachilar ijod qilishgan. Tarixchi Mirzan Balban haqida shunday yozgan edi: "Balban musiqaning buyuk homysi edi. U Hindiston musiqasini yuksak ma'noda ifodalab, uni boshqa mamlakatlarning musiqasidan ustun deb hisoblaydi. Balbanning o'g'li Bog'ra Xon ham musiqani yaxshi ko'rardi. Musiqa, raqqoslar va aktyorlar uchun alohida shart sharoitlar yaratib beradi. Jaloliddin Xiljiyning vorislari uning saroyida qirol orkestrini saqlab qolishdi. Hindistonda musiqa ilmining rivojlanishi ham Amir Xusrav Dehlaviy nomi bilan bog'liq edi. U Fors va Hind qo'shiqlarini uyg'unlashtira oldi. Shuningdek, u musiqaning yangi turini yaratdi. Dehli sultonlaridan Giyasuddin Tug'luq musiqaga qarshi edi va uning shohligida musiqaning har qanday ko'rinishi taqiqlandi. Ammo uning o'g'li va merosxo'ri Muhammad Tug'luq yana musiqa ilmini qayta tikladi va unga homiylik qildi. U Hindu va musulmon musiqachilari ishtirot etgan bir qator musiqiy uchrashuvlarni o'tkazdi. Sulton Feruzshoh Tug'luq ham musiqaga qiziqib qoldi va taxtga chiqqach, u jamoatchilikning o'yin-kulgisi uchun yigirma bir kunlik

musiqiy konsert dasturlarini o'tkazdi. Bundan xulosa qilish mumkinki, musiqa ilmi sultonlik hukmronligi davrida rivojlandi deyish mumkin⁹⁴.

Istilochilarining yurushlari memorchilikda ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Go'zal san'atlar, birinchi navbatda, arxitektura san'at Dehli sultonligi davrida muvaffaqiyatga erishdi. Islom rasm, musiqa va raqsga qarshi turardi. Shuning uchun rasm san'ati bu davrda rivojlana olmadi. Biroq, Dehlining Sultonlari va viloyat sulolasi hukmdorlari musiqa va raqsni yaxshi ko'rар ekanlar, bular, albatta, rivojlandi.

Sultonlik davri me'morchiligi uch toifaga bo'linadi. Birinchisi, Dehli sultonlari homiyligida paydo bo'lgan Dehli yoki Imperial uslubi. U turli sultonlar tomonidan qurilgan barcha binolarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi esa, asosan, musulmon bo'lgan viloyat hukmron sulolalarining homiyligi ostida bunyod qilinadigan me'moriy uslubi. Imperatorlik uslubi, albatta, viloyat me'morchiligi uslubiga ta'sir qilgan bo'lsada, viloyat san'atida o'ziga xos turli xil xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Uchinchisi – “Rajastan” hind shohlari va Vijayanagar imperiyasi ostida rivojlangan Hindu me'morchiligi.

Hind me'morchiligi uslublari Imperial uslubdan ta'sirlangan va rivojlangan. Hindlar o'z me'morchiligidagi go'zallik va kuch-qudratning ajoyib uyg'unligini yarata oldilar. Islomiy me'morlik nafaqat forslar tomonidan, balki Mesopotamiya, Markaziy Osiyo, Misr, Shimoliy Afrika, Janubiy-Sharqiy Yevropa, Afg'oniston kabi arxitektura uslublari bilan ham o'zaro uyg'unlashdi.

Qutbiddin Oyboq Dehlidagi Qutb-ul-islom masjidini va Ajmirdagi yana bir masjidni Dxay Din Ka Jonpra bunyod ettirdi⁹⁵. Birinchisi vayron qilingan ma'badda, ikkinchisi esa vayron qilingan Sanskrit kollejida joylashgan. Qutb Minorning qurilishi ham aslida Qutbiddin Oyboq tomonidan rejalshtirilgan, ammo u Eltutmish tomonidan bajarilgan. Qutb Minorni rejalshtirish, aslida, islomiy edi, chunki u aslida muazzin uchun (musulmonlarni ibodat qilishga chaqiradigan) joy vazifasini o'tashni maqsad qilib qo'yilgan edi, keyinchalik u g'alabali minora sifatida mashhur bo'ldi⁹⁶. Hindiston (Dehli)dagi me'moriy yodgorlik (1200 – 1220); Sharq me'morligining noyob

⁹⁴ https://www.brainkart.com/article/Delhi-sultanate----Art--Architecture--Literature-and-Music_1279/

⁹⁵ <http://www.leadthecompetition.in/GK/history/delhi-sultanatte.html>

⁹⁶ <http://oer2go.org/mods/en-boundless/www.boundless.com/art-history/textbooks/boundless-art-history-textbook/south-and-southeast-asia-after-1200-ce-28/sultanate-of-delhi-904/architecture-under-the-sultanate-of-delhi-653-7106/index.html>

namunasi. Dehlida vafot etgan o'shlik din arbobi Hoji Qutbiddin Baxtiyor sharafiga bunyod etilgan (maqbara minoradan 600 m janubiy-g'arbda). Minora 5 qatlamlı (dastlab 4 qatlamlı bo'lgan, 5qatlamlı keyin qurilgan), tarhi konussimon, g'arovli; g'ranit bloklar ganchhok bilan mustahkamlab qurilgan; balandligi 72,6 m, diametri asosida 14,74 m, uchida 3,05 m. Quyi 3 qatlam turli rangdagi qumtosh bilan, yuqori 2 qatlamlı (yashin urib vayron bo'lgan) XIV asrda oq marmardan deyarli bezaksiz qayta tiklangan. Ichkaridagi aylanma zinapoya (379 ta) orqali yuqoriga chiqiladi. minora belbog'iga muqarnas naqshlar ishlangan, sultonlar tarixi, ularga mad-hiya, Qur'on oyatlari yozib bezatilgan⁹⁷.

Qutb Minor ajoyib bino bo'lib, Fergusson uni "dunyoning istalgan nuqtasida ma'lum bo'lgan qasrning eng mukammal namunasi" deb hisoblaydi. Qutb Minorini qurdirish bilan bir qatorda, Iltutmish Qutb Minoridaн deyarli uch chaqirim uzoqlikdagi Sulton-G'ori deb nomlanadigan buyuk o'g'lining qabrida maqbarani qurdirdi.

Alauddin Xiljiy davrida mamlakatning iqtisodiy resurslarga boy ekanligi unga ko'plab chiroylı binolarni qurish imkonini berdi. Uning binolari mukammal islomiy nuqtai nazardan qurilgan va Hindistondagi islomiy san'atning eng yaxshi misollari hisoblanardi. Uning Qutb Minor yaqinida kichik va katta masjid qurish rejasi bor edi. Shunga qaramay, Nizomiddin Auliya maqbarasida joylashgan Jamaitxon masjidi va Qutb Minorda mashhur Alai Darvozasini qurdirdi. Alauddin Xiljiyning shahri va saroyi vayron qilingan, ammo Jamaitxon masjidi va Alai Darvozalari mavjud bo'lib, ular islomiy san'atning chiroylı namunalari hisoblanadi⁹⁸. Marshalning fikriga ko'ra, "Alai Darvozasi islom me'morchiligining eng qimmatbaho toshlaridan biridir".

Alauddin, shuningdek, sobiq Dehli shahrining yaqinidagi Siri shahrining yaqinidagi Hauz-i Aliy yoki Hauz-i-Xas kabi mashhur binolarni qurdirdi. Tug'luqiy sultonlari chiroylı binolarni qurmaganlar. Ehtimol, ularning asosiy sabablari ularning iqtisodiy qiyinchiliklari edi. Bundan tashqari, ular o'zlarining qurdirgan kamyob

⁹⁷ <https://courses.lumenlearning.com/boundless-arhistory/chapter/sultanate-of-delhi/>

⁹⁸ <https://courses.lumenlearning.com/boundless-arhistory/chapter/sultanate-of-delhi/>

me'morchilik inshootlarida hashamdan qochib, binolardagi bezaklardan voz kechishdi⁹⁹.

Lo'diylar va Sayyid sultonlari tomonidan qurilgan binolar qatorida Muborak Shoxid Sayyid, Muhammad Shoh Sayyid va Iskandar Lodiy va Dehlidagi Iskandar Lodiyning bosh vaziri tomonidan Mut-mas'id masjidining maqbaralari o'sha davr me'morchiligining eng yorqin namunalaridan hisoblanadi. Biroq, hozirgacha faqat ba'zi qabrlar, masjid va minoralar bizga qadar saqlanib qolgan xalos. Tabiiyki, ularning ichida Qutb Minor va Alai Darvoza Hind-islom me'morchiligining juda yaxshi namunalari va ularning eng yaxshilaridir. Hindiston me'morchilik hududiy hususiyati jihatidan ham bir biridan farqlanib turgan.

Mo'lton shahrida to'rt davrda tayyorlangan to'rtta bino mavjud: Shox Yusuf-ul-Gardizi, Bahlul-Haqqning maqbarasi, Shamsiddin maqbarasi va Rukn-i Alam maqbarasi G'iyosiddin Tug'luq tomonidan qurdirligan. Shuningdek G'iyosiddin Tug'luq Qutb Minorning sharqiy qismida Tug'luqobod shahri (qal'asi) ni ham bunyod ettiradi. Bu shahar qurilishi rim me'morchiligi uslubi hisoblangan "Roman" uslubining aksariyat elementlarini o'zida aks ettirgan¹⁰⁰. Ular orasida Rukn-i Alam maqbarasi tarixchilar tomonidan eng yaxshisi deb hisoblanadi. Bengalda ko'tarilgan binolarda ko'pincha g'isht ishlatilgan. Ushbu binolar orasida mashhurlari Panduadagi Iskandar Shoh tomonidan qurilgan Adina Masjidi, Xazarat Panduaidagi Eklaxi maqbarasida, Gaurdagi Ganamant va Darasbari masjidlari, Lotan masjidi va Gari Beriy Sona masjidi hisoblanadi. Bengal me'morchiligi uslubining asosiy xususiyatlari ustunlar ustidagi burchaklar, Hindu dekorativ dizaynlari va hind san'ati me'moriy san'atiga moslashishi edi. Shunga qaramay, Bengal me'moriy uslubi boshqa viloyatlarda qabul qilingan boshqa uslublardan mavqeyi jihatidan ham past edi. Malvada qurilgan binolar Dehli sultonlari tomonidan qurilgan inshootlarga juda o'xshardi. Mandu qal'asi chiroyli himoyalangan shahar deb hisoblanadi. Mandu shahrining eng muhim binolari - Jinniy masjid, Hindola Mahal, Ashrafi Mahal, Sulton Mahmud Xiljiy, Jahaz Mahal va Baz

⁹⁹ Nasir Raza Khan. Medieval Architecture of India: A Source of History (From 12th to 18th Century)// International Journal of Multidisciplinary Research and Development. Volume 1. Impact Factor: IJMRD 2014. – New Delhi, 2014. – P. 81-84.

¹⁰⁰ Konpal Preet Kaur. Intermingling of Societies: Revisiting Delhi Sultanate through the Prism of Architecture // Journal of Multidisciplinary Studies in Archaeology. Volume 4. Uttar Pradesh. India, 2015. – P. 3-6.

Bahadur saroyi va uning malikasi Rupmati tomonidan qurilgan Sulton Xushang Shohning maqbarasi o'sha davr ulug'vorligini o'zida namoyon etadi. Bundan oldin qurilgan binolar Kamol Mahal masjidi, Lal Masjidi, Dilavarxon masjidi va Mandu shahridagi Molik Mug'is maqbarasi o'zlarining alohida uslubiga ega edi. Kashmirda esa hind va musulmon me'morchiligi uyg'unlashgan. Bu davrda qurilgan eng muhim binolar – Mandani qabri, Srinagardagi Jome masjidi va Shoh Hamadan masjidi¹⁰¹.

Sulton Feruzshoh hukmronligi davrida Dehli shahrining me'morchiligi gullab yashnadi. U Feruzobod (Kotla Feruz Shoh) shaharini bunyod ettirdi. Bu shahar daryo yonida joylashgan bo'lib, aynan manashu sabab uning atrofida ajoyib manzarani hosil bo'lishini ta'minladi¹⁰².

Xulosa qilib aytganda, musulmonlarning bu yarimorolga kirib kelishi madaniyatga ijobiy ta'sir qildi. Xususan, diniy hayot birmuncha tartibga solindi va bu esa uzoq yillardan beri bu yerda davom etayotgan nizolarga chek qo'ydi. Qur'oni karimdan olingan oyatlar islom me'morchiligi durdonalari bo'lgan binolarning ichki va tashqi tomonlarini bezashda keng qo'llaniladigan bo'ldi. Asosiysi turk-afg'on madaniyati Hindiston madaniyatining keying taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsata oldi.

Markaziy Osiyodan Hindistonga islom dinining kirib kelishi, boshqa elatlarning bu hududga ko'chib kelishi natijasida, liboslarni tikib kiyish odatga aylanadi. Haligacha oddiy xalq orasida tikilinagan kiyim kiyish an'analari saqlanib qolgan. Tikilgan liboslar asta-sekin kundalik turmushda o'z o'rnini egalladi. Hind liboslarining rivojlanishiga G'arb madaniyati o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu ayniqsa, erkaklar libosida yaqqol ko'zga tashlandi. XIX asrda inglizlar Hindistonga syurtuk, shim va hatto bosh kiyim - pilotkani olib kirdilar. Yevropa modasiga yaqinlashish hind ayollar kiyimi siluetining o'zgarishida yaqqol sezildi. Shunga qaramay, ayollar hind an'anaviy liboslariga bo'lgan o'z e'tiqodlarini hamon saqlab kelmoqdalar.

¹⁰¹ Синха Н. К., Банерджи А.Ч. История Индии. – Москва, 1954. – P.172.

¹⁰² Konpal Preet Kaur. Intermingling of Societies: Revisiting Delhi Sultanate through the Prism of Architecture // Journal of Multidisciplinary Studies in Archaeology. Volume 4. Uttar Pradesh. India, 2015. – P. 3-6

Qadimda hind ustki kiyimlari tanaga o'ralgan yoki yelkaga tashlab yurilgan. Hind milliy libosining bir bo'lagi, erkaklarning tikilmagan bel kiyimi - dho'tiy hisoblanadi. Dho'tiyni har xil uslubda taxlab, drapirova qilishgan. U ham ishton va peshband ko'rinishida bo'lган, 2-5 metr uzunlikdagi matoni bo'ksa atrofiga taxlab, old tomonga bog'langan (tugun hosil qilingan) va orqa tomonda osilib turgan uchini oyoqlar orasidan oldinga o'tkazib mahkamlangan. Dho'tiyni o'rashning bir necha shakllari mavjud edi. Bu kiyim turi xalq orasida hozirga qadar saqlanib qolgan¹⁰³.

Ayollar libosi haqida gap ketadigan bo'lsa, qadimda hind ayolining jamiyatda egnidagi kiyimidan bo'lak hech qanday mavqeyi ham, boyligi va haq-huquqi ham bo'lмаган.

Sari – hind ayollarning nazokatli, an'anaviy milliy libosidir. Sari har xil usullarda o'ralgan va uni o'rashni bir necha xil usullari mavjud bolib, ulardan biri: sondan tizzagacha yoki to'piqqacha 1-2 marta o'rab keyin tugib bog'ланади. Tepa qismi yelkaga tashlanadi, sarining bir uchi ko'krak yonlarigacha chiroylar qilib qistirib qo'yiladi. Sari qanday o'ralishi, taxlamalari qanday shaklda ekanligiga qarab, libos egasi boshqalardan ajralib turadi. Aksariyat hollarda naqshin hoshiya yoki rangli yol-yo'l chiziq bilan to etakkacha bezatiladi.

Hind ayollarini kalta kofta – choli va yubka kiyishgan. Choli - kaltagina yengchali, ko'krakka yopishib turadigan juda tor yelka kiyimidir. Ko'krak qismini orqa tomonidan qattiq tortib, ip tasma bilan bog'ланади. Hatto sari o'ralganda ham tana ko'rinish turadi. Kichkina choli koftasi sernaqsh qilib bezatiladi.

Shuningdek, o'rta asrlarda zargarlik san'ati ham yaxshi darajada taraqqiy qildi. Hunarmand zargarlar taqinchoqlarning turli xil ko'rinishlarini yaratdilar. Hammamizga ma'lumki zargarlik san'ati bu mamlakatda uzoq tarixga ega. Chunki ayni shu vositalari o'sha davrda hind ayollarini go'zalligining bir qismi sifatida qaralgan. Hind ayollarining taqinchoqlari, zeb-ziynatining o'ziga xosligi, nafisligi, chiroyi bilan ta'rifga sazovordir. Boy zodagon xonodon ayollarini qimmatbaho tilla va kumush metallardan taqinchoqlar taqqan. Oddiy ayollar - birinj, mis, ganch va

¹⁰³ Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Liboslar tarixi. – T.: Sano-standart, 2015. – B.175.

shishadan yasalgan taqinchoqlar taqqan. Fil suyagi, rangli shisha, gavhar, nozik, chig'anoq, meva va danaklardan turli marjonlar, taqinchoqlar yasalgan¹⁰⁴.

Shunisi aniqki, musulmonlar turmush madaniyati o'zining nafisligi, yuksak didliliqi bilan ajralib turgan. Ularning ayrim jihatlari keyinchalik boshqa Osiyo xalqlari tomonidan qabul qilingan. Masalan, turli fasllarda mavsumga qarab kiyinish tartibi, bazmlarda taomlardan dastlab suyuq sho'rvalar, so'ng go'shtli taomlar, undan keyin qush go'shti va eng oxirida - shirinliklarni tortish tartibi joriy etilgan. Islom dinida istemol qilinishi mumkin bo'lgan taomlarga nisbatan "halol" degan tushuncha ishlatiladi. Bunday ovqatlarning nomi islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on"da zikr etib ketilgan. Qo'y, echki, tuya; dengiz hayvonlari: baliq va boshqa bir qator mavjudotlarning go'shtlari ham halol hisoblanib, ularni istemol qilishga ruxsat etilgan edi¹⁰⁵.

Dastlabki paytda turk-afg'onlarning ovqatlanish ratsionida amalga oshirmoqchi bo'lgan o'zgarishlari mahalliy aholi tomonidan yaxshi qarshi olinmadni. Chunki mahalliy aholi o'ziga xos ovqatlanish tartibiga ega bo'lib, ularning hammasi diniy turmush bilan chambarchas bo'g'liq edi. Bu boradagi dastlabki o'zgarishlarni shimoliy hukmdorlardan biri Maharaja amalga oshirdi va aholini turmush tarziga o'zgarish kiritdi.

Ibn battutaning ma'lumotiga qaraganda hindlarning musulmonlar hukmronligi davridan boshlab, mavsumiy meva va sabzavotlar: kashtan, qovun, yong'oq, bodring, apelsinni istemol qilishni boshladni. Shihabuddin Al Umrining keltirgan faktlariga asoslanadigan bo'lsak, o'sha davr do'konlarida 65 turdag'i shirinliklar sotilgan. Zodagon oilalar asosan sifatli mahsulotlarni istemol qilishgan va bunday mahsulotlardan taom tayyorlash bilan "Chasngir" (oshxona qiroli) shug'ullangan. Ayni musulmoncha odad: bir dasturxon atrofida barcha oila azolari bilan ovqatni tanovul qilish zodagonlar orasida urf ko'rinishga kira boshladni va buni oila mustahkamligidagi o'rni muhimligini sekin-asta ular anglab yeta boshladilar¹⁰⁶.

¹⁰⁴ Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Liboslar tarixi. – T.: Sano-standart, 2015. – B.177.

¹⁰⁵ Tabraze Anees. Food of sultanate period of India // International Journal of Academic Research and Development. Volume 2. Impact Factor: RJIF 5.22. – New Delhi, 2017. – P. 1.

¹⁰⁶ Tabraze Anees. Food of sultanate period of India... – P. 2.

Xulosa o'rnida aytish kerakki musulmon madaniyati hind hayotining deyarli hamma sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

X U L O S A

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– X – XI asrlarda o‘zaro urushlardan kuchsizlanib borgan Hindiston qo’shni davlatlar xujumi ostida qolgan. Xususan, Arab xalifaligining parchalanishidan vujudga kalgan musulmon davlatlari hukmdorlari Hindistonga hujum boshlaydilar. G‘azna hukmdori Mahmud G‘aznaviyning qo’shinlari 1000 – 1026-yillarda mamlakat shimoliga 17 marta bosqinchilik yurishlari uyshtirib Hindistonning Panjob va Sind viloyatlarini bosib oladi. G‘aznaviyalar Panjobni egallab, uni o’zlarining Hindistondagi doimiy tayanch nuqtalariga aylantirdilar va uni to 1135-yilgacha idora qiladilar;

– G‘azna hukmdori Shahobiddin Muhammad (1173 – 1206) bor e’tiborini janubga, Hindistonga qaratadi. Muhammad Guriyning Hindiston tomon ilk yurushlari 1175-yil boshlandi. Dastlabki harbiy harakatlar Mo’lton hamda Uchch shaharlarini egallanishi bilan yakuniga yetdi. U harbiy urushlarni davom ettirib Gujarat (1178), Lahor (1186), Mo’ltan, Sind va Panjob (1190) shaharlarini egalladi;

– Muhammad Guriy yangi bosib olingen hududlarni boshqaruvini kelib chiqishi g’ulomlardan bo’lgan tajribali sarkarda Qutbiddin Oyboqqa topshirdi. Strategik jihatdan qulay joyda o’rnashgan Dehli shahri Qutbiddin Oyboqning qarorgohi bo’lgan;

– Dehli sultonligining tarixi, 1206-yilda sulton Muhammad Guriy harbiy yurishdan qaytayotganida Hind daryosi qirg’og’ida o’ldirilganidan keyin, boshlanadi. Gang vodiysida va Panjobda Qutbiddin Oyboq hokimiyatni egalladi. Bu joyda vujudga kelgan davlatni uning poytaxtini nomidan kelib chiqib, Dehli sultonligi deb atashdi;

– Yevropa va hind tarixchilarining ma’lumot berishicha Dehli sultonligi o’z hukmronligi davri (1206 – 1526 va 1540 – 1555-yillar) da oltita sulola tomonidan boshqarilgan. Bular – Muizziy sulolasи yoki “Qul sultonlar”, Xiljiylar, Tug’luqiyalar, Sayyidlar, Lo’diyalar, Suriylar sulolaridir;

– Qutbiddin Oyboq mustaqil Dehli davlatining ilk hukmdori edi. U mamlakatni Feruzko’hdagi G’uriy sultonni nomidan malik sifatida idora etdi. Oyboqni va uning 1290-yilgacha hukmronlik qilgan vorislarini ko’pincha “Qul sultonlar” deb atashardi;

– Sulton Qutbiddin Oyboq chavgon o'yini paytida otdan yiqilib o'lganidan so'ng taxtga Shamsiddin Eltutmish (1211 – 1236-yillar) o'tirdi. 1215-yil Eltutmish Movaraunnahrda hukm surayotgan Sulton Muhammad Xorazmshoh qo'shinlaridan ham qarshatqich mag'lubiyatga uchradi va G'aznadagi mulklaridan mahrum bo'ldi. Mo'g'ullarning hujumi boshlanadi. Ular 1221-yil shimoliy Gujarat, Panjob va Sind viloyatlarini talon-taroj qiladialr. Shundan keyin sulton armiyani qaytadan tashkil qilib, mamlakat mudofasini tashkil qiladi. Panjob, Sind, Bengaliya yerlari bosib olindi. Shu davrdan e'tiboran fors tili davlat tiliga aylandi. Maxsus davlat kengashi tashkil qilinib, uni "Turkan-i-Chahalgani" ya'ni "40 turk zodagoni" deb atadi;

– Eltutmish vafotidan so'ng o'g'il vorislarning taxtga noloyiq ekanliklari sababli qisqa muddat davomida sultonlikni Roziya sultonbegim idora qildi. Roziya uch yarim yil davomida davlatni muvaffaqiyatli tarzda boshqardi. U fitnachilar bilan kurashishdan tashqari iqto yer egaligini ham tartibga soldi. Yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi turk qabila zodagonlari yengilgan mahalliy hind mulkdorlari mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar. Roziya sulton Eltutmishdan keying yurt chegaralarini imkon qadar sharqqa qadar kengaytirishga harakat qildi;

– turk zodagonlari va sultonlar o'rtasidagi taxt uchun kurashlardan so'ng "Turkan-i-Chahalgani" ya'ni "40 turk zodagoni" rahbarlari sultonlikda o'z hukmronliklarini boshlashdi. Aslida ular Roziya sulton o'limidan so'ng sultonlik hokimiyatiga kuchli ta'sir o'tkazib kelayotgan edi. Ular Bahrom Shoh (1240 – 1242) va Masudshoh (1242 – 1246) larni taxtga olib chiqib, amalda o'zлari mustaqil ravishda sultonlikni boshqarishdi;

– 1265-yil taxtga chiqqan G'iyosiddin Balban davrida Hindistonda diktatura qaror topdi. U rajputlarning ko'plab hujumlaridan so'ng, zodagonlarning qo'shinga ega bo'lishlarini taqiqlab qo'ydi. U hokimiyatni hech kim bilan, hatto o'z qarindoshlari bilan ham baham ko'rishni istamadi. U davlat manfaatlari yo'lida qarindoshlarini ham ayab o'tirmadi. U "40 turk zodagoni" guruhining mamlakatdagi ta'sirini kamaytira oldi va yaxshi tayyorgarlikka ega qo'shin tuzdi. U qo'shin "Devon-i Arz" deb ataldi. Bu

qo'shin yordamida mo'g'ullar hujumi qaytarib qolindi va mamlakat ichidagi ba'zi viloyatlar – Doab, Mevat, Avatlarning isyonini yer bilan yakson qilindi;

– 1287-yil Qayqubod qisqa muddatda taxtni boshqardi. Keyin mamlakatda Qayumarsning hukmronligi boshlandi. Lekin uning hokimiyati unchalik ham mustahkam emas edi. Bu davrda mamlakatning shimoliy sarhadlarini mog'ullarning hujumlaridan himoya qilayotgan Jaloliddin Feruzshohning xalq orasida obro'si oshib Ariz-i-Mumalik ya'ni "Harbiy vazir" degan nom oladi. Feruzshoh 1290-yil Qayumarsni o'ldirib, hokimiyat tepasiga chiqdi va o'zini sulton deb atadi. Natiajada Hindistonda Xiljiylar sulolasi davri boshlandi. Xiljiylar kelib chiqishiga ko'ra turkiy qabilalardan edilar;

– Alouddin Xiljiy hokimiyat ishlariga ulamolarning aralashuvini keskin kamaytirishga erishib, G'iyoisdin Balbanning siyosatini davom ettirdi. Armiyada esa qat'iy tartib o'rnatdi. Murakkab politsiya mahkamasi barpo etildi, bir-biriga bo'ysunmaydigan uchta maxfiy xizmat idoralari tashkil etildi. Shu xizmatlar yordamida sulton mamlakatda tartib-qoidalarni qat'iy amal qilinishini nazorat qilgan. Alouddin Xiljiy davrida qilingan eng katta islohotlardan biri bu bozor munosabatlarining tartibga solinishi bo'ldi. U mamlakat armiyasini ta'minotini yaxshi qilish uchun mamlakatdagi tovarlar uchun qat'iy narx belgilab qo'ydi. Shuningdek, u mamlakatdagi bozorlarni 3 turga bo'ldi;

– tug'luqiylar sulolasi asoschisi G'iyoisdin Tug'luq 1320 – 1325-yillarda davomida mamlakatni idora etdi va taxtni uning vafotidan keyin Muhammad Tug'luq egalladi. Bu sulola esa Dehli siltonligida 1412-yilga qadar hukm surgan. Muhammad Tug'luq Xiljiylar davrida boshlangan Dekan viloyatidagi istilolarni davom ettirdi. Yurushlar natijasida Varangal va Mabar viloyatlar anneksiya qilindi. U fors tilini juda mukammal bilgan, tabiiy ilmlardan yaxshi xabardor bo'lган, shuningdek, u mohir sarkarda ham edi, Muhammad Tug'luq sultonlikni 1351-yilga qadar boshqardi;

– Muhammad Tug'luq davrida Ganga va Jamna daryolari orasidagi hududlarda soliqlarning nihoyatda og'irligi tufayli 20 marta isyon bo'lib o'tdi. Hindistonda 7 yil qatorasiga misli ko'rilmagan qurg'oqchilik bo'lib, xalqqa katta kulfatlar keltirdi. Qadimgi Devagiri shahrini Davlatobod (g'alaba shahri) deb nomini o'zgartirdi va

poytaxtga aylantirdi. Ammo Muhammad Tug'luq davrida Dekan yarimoroli boy berildi. 1335-yilda Tamiliyadagi musulmon noibi poytaxti Madurai shahri bo'lган Maduriston sultonligi ajralib chiqdi. Bir yil o'tgach Hindistonning janubida, Krishna va Tungabxadra daryolari ortida qudratli Vijayanagar davlati yuzaga keldi. Muhammad Tug'luq hayotining so'nggi yillarida domiy qatl qilishlar va azob berishlar uning kundalik ishiga aylandi, shuning uchun xalq unga "Qonxo'r sulton" laqabini berdi;

– 1351-yilda Muhammad Tug'luq vafotidan so'ng taxtni uning jiyani Feruzshoh tug'luq egalladi. U o'z hukmronligini Dehli shahrining oldingi qudratini tiklashdan boshladi. Dehli shahri yana xalqaro savdoda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Dastlab, Feruzshuh Tug'luq davrida soliqlar kamaytirilib, davlat yerlari dehqonlarga ijara bo'lib beriladi, ya'ni musulmon olamiga xos bo'lган xiroj, zakot, jizya va ushr mamlakatning asosiy soliqlariga aylanadi. Uning boshqaruvi paytida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikning yuksalishi, oqilona boshqaruvi sultonga xalq homysi sifatida shuhrat keltiradi. Feruzshoh beva ayollar va yetim bolalarga g'amxo'rlik qiluvchi Devon tashkil qiladi va u Devoni iksarat deb ataladi. U Qizil qa'la yonida Feruzobod shahriga asos soldi. Shuningdek, u amaldorlarning faoliyatini qattiq nazoratga olib, poraxo'rliklarning barchasini tag-tomiri bilan qo'porib tashladi. U mamlakatning sug'orish tizimini isloh qilib, ko'plab kanallar, suv to'g'onlarin va ko'priklarni bunyod ettirdi. G'arbiy Yamuna kanali bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun ham ko'p tarixchilar "Hindistonning ikkinchi Akbari"deb ataydilar;

– XIV asrda Hindiston tamomila tarqoq feodal mamlakat edi. Juda ko'p musulmon va hind feodal davlatlari bir-birlari bilan uzlusiz kurash olib borardilar. 50 – 60- yillar davomida sultonning vassal rojalar bilan olib borgan urushlari natijasida Bengaliya, Sind, Orissa va Gujarat g'oyat xonavayron bo'lган edi. XIV asr 70 – 80- yillarda Dehli sultoni o'z qo'lida qolgan ozgina yerlarni ham himoya qilishga qodir emasdi. Markaziy hokimiyatning bu zaifligi yomon oqibatlarga olib keldi, Hindistonni yangi chet el hujumlariga qarshi qarshilik ko'rsata olmaydigan qilib qo'ydi. XIV asr oxirlarida shimoliy Hindiston Amir Temurning qo'shinlari tomonidan bosib olindi;

– Amir Temurning Multondagi sobiq hokimi Xidrxon davrida Sulton Davlatxon mag'lubiyatga uchratilib, Dehli shahri ishg'ol qilinadi va Sayyid sulolasiga asos

solinadi. Bu sulola Hindistonni 1414 – 1451-yillarda idora qilgan. Sayyidlarning haqiqiy hukmronligi Dehli atrofidagi kichkina viloyatdan nariga o'tmas edi. Dehlidagi turkiy va afg'on harbiy guruhlari o'rtasida Sayyidlarning obro'yi katta emasdi.

– zamindorlar yordami bilan taxtni egallagan Lo'diylar sulolasini tez orada armiyadagi boshqaruvni to'la o'z qo'liga oladi va o'z hukmronligini mustahkamlashga erishdi. Bu sulolasining asoschisi Bahlul Lo'diy (1451 – 1489) edi. Lodilardan Iskandar (1489 – 1517) yana amirlar va zodagonlarni boshqaruvdan chetlatib, yakka hukmronlikka erishdi. U shunchaki hukmdor emas, balki manaviy hayotning haqiqiy sarboni edi. U o'z faoliyati davomida ko'plab asarlar yozib qoldirgan bo'lib, "Gulrux"degan taxallus ostida ijod qiladi. U 1505 – 1505-yillarda Agrani poytaxtga aylantirish va savdo-iqtisodiy markazga aylantirish to'g'risida farmon beradi;

– 1517-yil Iskandarning vafotidan so'ng musulmon zamindorlari Ibrohim Lo'diy taxtga keladi. U forsiyzabon xalqlarning hokimiyatda muhim lavozimlarni egallashi tarafdori bo'lган va uning bu ishi hindlar orasida nozoriliklarni keltirib chiqargan. U 1526-yil 21-aprel kuni Hindistonga bostirib kirgan Zahiriddin Muhammad Bobur bilan kurash olib borgan. Ibrohim o'ldirilgan va Hindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligi boshlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. Bitiruv Malakaviy Ishi uchun nazariy asos bo`lgan adabiyotlar ro`yxati:

1.1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: Ўзбекистон, 2016.

1.2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабръ.

1.3. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қаътий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг куналик қоидаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

1.4. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

1.5. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

1.6. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январъ.

1.7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.

1.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль. 28 (6722)-сони.

1.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли Қарори // Акс Садо. 2017 йил 6 апрель – 22 апрель. - №6 (73).

1.10. “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори // Халқ сўзи. – 1998 йил, 28 июль.

II. Adabiyotlar:

- 2.1. Бонгард К. А., Левин Г. Г. История Индии. – М., 1969.
- 2.2. Босворт К. Е. Мусулмон сулолалари. – Т.: Фан, 2007.
- 2.3. Вохидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. – Т.: Академнашр, 2013.
- 2.4. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – Т.: Sharq, 2017.
- 2.5. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Liboslar tarixi. – Т.: Sano-standart, 2015.
- 2.6. Семенов В. Ф. Ўрта асрлар тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
- 2.7. Синха Н. К., Банерджи А. Ч. История Индии. – М.: “Иностранной литературы”, 1954.
- 2.8. Фролова И. В. Статус женщины-мусульманки в поликонфессиональном обществе: история и современность. – Уфа: Мир печати, 2016.
- 2.9. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. – Т.: Sharq, 2010.

III. Xorijiy adabiyotlar:

- 3.1. Chadel L. S. Early Medieval State. Commonwealth Publishers. – New Delhi, 1989.
- 3.2. Qureshi I. H. Administration of the Sultanate. – Lahore: Kashmiri Bazaar, 1944.
- 3.3. Mohd Habib. Introduction to the Fatwa-i-Jahandari. – Aligarh, 1958.
- 3.4. Khaldun A. L. Muqqadamaa. U.P., 1961. Hindi translation.
- 3.5. Muhammad Qamaruddin. Society and Culture in early medieval India. Adam Publishers & Distributors. – New Delhi, 1985.
- 3.6. Juzjani Minhaj -us Siraj. Tabaqat-i- Nasiri. – New Delhi, 1970.
- 3.7. Ibn Khaldun. Muqaddama//quoted by Arnold. – London:Cambridge press.
- 3.8. Agha Mahdi Husain. Futuh -us-Salatin. – New Delhi: Asia Publishing House, 1976.

- 3.9. Nizami K. A. Some Aspects of Religion and Politics During the Thirteenth Century. – New Delhi, 1974.
- 3.10. Tripathi R. P. Some Aspects of Muslim Administration. – Allahabad, 1958.
- 3.11. Ibn Battuta. The Rehla//quoted by Mahdi Husain. – New Delhi.
- 3.12. Nizami K. A. A Comprehensive History of India. – New Delhi, 1970.
- 3.13. Kumar Brothers. The Government of the Sultanate. – New Delhi, 1972.
- 3.14. Husain Wahed. Administration of Justice During the Muslim Rule in India. Calcutta University. – Calcutta, 1934.
- 3.15. Lane- Poole Stanley. The Coins of the Sultans of Delhi in the British Museum. – London, 1884. – P. 18-19.
- 3.16. Moin Danish.Coins of the Delhi Sultans. Maharastra. IIRNS Publication. 1999.
- 3.17. Wright Nelson.The Coinage and Metrology of the Sultans of Delhi. – Delhi, 1974.
- 3.18. Shushtery A.M.A. Outlines of Islamic culture.Bangalore: Bangalore press. 1938.
- 3.19. Anup Singh. Origin and ruling period of Delhi sultanate// International Journal of Academic Research and Development. Volume 3. Impact Factor: RJIF 5.22. – New Delhi, 2018.
- 3.20. Noor Achmad,Nanang Nurcholis. States and local legal cultures in medieval islam// Journal of Islamic Studies. Volume 54. – New Delhi, 2016.
- 3.21. Nasir Raza Khan.Medieval Architecture of India: A Source of History (From 12th to 18th Century)// International Journal of Multidisciplinary Research and Development. Volume 1. Impact Factor: IJMRD 2014. – New Delhi, 2014.
- 3.22. Konpal Preet Kaur. Intermingling of Societies: Revisiting Delhi Sultanate through the Prism of Architecture // Journal of Multidisciplinary Studies in Archaeology. Volume 4. Uttar Pradesh. India, 2015.
- 3.23. Tabraze Anees. Food of sultanate period of India // International Journal of Academic Research and Development. Volume 2. Impact Factor: RJIF 5.22. – New Delhi, 2017.

IV. Internet ma'lumotlari:

- 4.1. <http://www.leadthecompetition.in/GK/history/delhi-sultanatte.html>
- 4.2. <https://www.britannica.com/place/Delhi-sultanate>
- 4.3. <https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/administration-in-delhi-sultanate-1441275639-1>
- 4.4. <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/delhi-sultanate/administration-of-india-under-the-delhi-sultanate-history/6585>
- 4.5. <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>
- 4.6. <http://www.mitrasias.com/administrative-structure-under-the-delhi-sultanate/>
- 4.7. <https://erenow.net/exams/indian-history/17.php>
- 4.8. <http://haryanatourism.gov.in/Destination/tomb-of-razia-sultan>
- 4.9. <https://brainly.in/question/334069>
- 4.10. <https://www.thebetterindia.com/116257/razia-sultan-first-female-ruler-delhi/>
- 4.11. <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/delhi-sultanate/administration-of-india-under-the-delhi-sultanate-history/6585>
- 4.12. https://www.brainkart.com/article/Delhi-sultanate----Art--Architecture--Literature-and-Music_1279/
- 4.13. <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/sufi-and-bhakti-movement-in-india/3052>
- 4.14. <http://www.historydiscussion.net/history-of-india/medieval-age/origin-of-urdu-language-in-india/6222>
- 4.15. https://www.researchgate.net/publication/28348968_Chishtia_silsilah_and_the_delhi_sultanate_a_study_of_their_relationship_during_13th_and14_centuries
- 4.16. https://www.jagranjosh.com/general-knowledge/_medieval-period-persian-influence-1344325409-1
- 4.17. <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/amir-xusrav-dehlaviy-ruboiylar.html>
- 4.18. http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=1016&Itemid=210

4.19.https://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/12965/13/13_chapter%206.pdf

4.20.https://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/219356/9/09_chapter%203.pdf

4.21. <http://www.leadthecompetition.in/GK/history/delhi-sultanatte.html>

4.22.<http://oer2go.org/mods/en-boundless/www.boundless.com/art history/textbooks/boundless-art-history-textbook/south-and-southeast-asia-after-1200-ce-28/sultanate-of-delhi-904/architecture-under-the-sultanate-of-delhi-653-7106/index.html>

4.23. <https://courses.lumenlearning.com/boundless-arthistory/chapter/sultanate-of-delhi/>